Bosh ilmiy-metodik markaz

2022

O'quv-uslubiy majmua

# TA'LIM SIFATI MONITORINGI VA NAZORATI

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**OLIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL ETISH**
**BOSH ILMIY - METODIK MARKAZI**

**"Ta'lim sifati menejmenti" yo'nalishi uchun**

# "TA'LIM SIFATI MONITORINGI VA NAZORATI"

# moduli bo'yicha

# O' Q U V –U S L U B I Y M A J M U A

**Toshkent – 2022**

Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil 7 dekabrdagi 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan "Ta’lim sifati menejmenti" qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishi o‘quv reja va dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

**Tuzuvchi:** **B.Nazarov -** texnika fanlari nomzodi, dotsent

**Taqrizchi:** **N.Saburov -** yuridik fanlari doktori, dotsent

O‘quv -uslubiy majmua Bosh ilmiy-metodik markaz Ilmiy-metodik Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan
*(2022 yil "24" dekbardagi 6/4-sonli bayonnoma)*

## MUNDARIJA

**I. ISHCHI DASTUR** ........ 6

**II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA'LIM METODLARI** ........ 17

**III. NAZARIY MATERIALLAR** ........ 20

**IV. AMALIY MATERIALLAR** ........ 56

**V. GLOSSARIY** ........ 114

**VI. ADABIYOTLAR RO'YXATI** ........ 118

# I. ISHCHI DASTUR

# ISHCHI DASTUR

## Kirish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi”da milliy kadrlarning raqobatbardoshligi va umumjahon amaliyotiga asoslangan oliy ta’lim milliy tizimining sifati oshishiga alohida e’tibor qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da oliy ta’lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma’naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish, respublikadagi kamida 10 ta oliy ta’lim muassasasini xalqaro e’tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1000 ta o‘rindagi oliy ta’lim muassasalari ro‘yxatiga, shu jumladan O‘zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini birinchi 500 ta o‘rindagi oliy ta’lim muassasalari ro‘yxatiga kiritish belgilangan.

Shuningdek, mamlakatimizning barcha sohalarida islohotlarni amalga oshirish, odamlarning dunyoqarashini o‘zgartirish, yetuk va zamon talabiga javob beradigan oliy ma’lumotli mutaxassis kadrlarni tayyorlashni hayotning o‘zi taqozo etmoqda. Respublikada ta’lim tizimini mustahkamlash, uni zamon talablari bilan uyg‘unlashtirishga katta ahamiyat berilmoqda. Bunda mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ta’lim va tarbiya berish tizimi islohatlar talablari bilan chambarchas bog‘langan bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Zamon talablariga javob bera oladigan mutaxassis kadrlarni tayyorlash, Davlat tomonidan qo‘yilayotgan talablar asosida ta’lim va uning barcha tarkibiy tuzilmalarini takomillashtirib borish oldimizda turgan dolzarb masalalardan biridir.

Ushbu dasturda Ta’lim muassasalari faoliyatini baholash ko‘rsatkichlari va mezonlari. Ta’lim muassasalarini attestatsiyasi va davlat akkreditatsiyasi. Ta’lim muassasalarini ichki va tashqi baholash. Talabalar bilimini baholash tizimi. Ta’lim tizimiga yuqori samarali xalqaro amaliyotni joriy etish. Yakuniy davlat attestatsiyasi. Davlat-jamoatchilik nazorati. Tashqi nazorat. Ta’lim sifatini oshirishda ichki nazorat va hisobdorlik mexanizmlari. Xalqaro e’tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingi. «2+500» va

«8+1000» loyihalari. Oliy ta’lim tashkilotlarining milliy reytingi. Oliy ta’lim muassasalari reytingini aniqlash. Ta’lim sifatini nazorat qilish va oliy ta’lim muassasalari reytingini yuritishning nodavlat tizimini yaratish. Ta’limda o‘quv-tarbiya jarayonlari, professor-o‘qituvchilar tarkibi, kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish sifatini nazorat qilishda rahbar kadrlarning o‘rni. Ta’lim sifatini ta’minlash jarayonlarini elektron ta’lim boshqaruv tizimi orqali nazorati asoslari bayon etilgan.

## Modulning maqsadi va vazifalari

**Modulning maqsadi:** qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi tinglovchilarini ta’lim sifati nazorati, ta’lim muassasalari faoliyatini baholash, yakuniy davlat attestatsiyasi, oliy ta’lim muassasalari reytingi bilan tanishtirish.

**Modulning vazifalari:** tinglovchilarda ta’lim sifatini nazorat qilish, ta’lim muassasalari faoliyatini baholash, yakuniy davlat attestatsiyasini o‘tkazish, oliy ta’lim muassasalari reytingini aniqlash bo‘yicha malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish.

## Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar

“Ta’lim sifati monitoringi va nazorati” modulini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

**Tinglovchi:**

- ta’lim muassasalari faoliyatini baholash ko‘rsatkichlari va mezonlari;
- ta’lim muassasalarini attestatsiyasi va davlat akkreditatsiyasi;
- ta’lim muassasalarini ichki va tashqi baholash;
- talabalar bilimini baholash tizimi;
- ta’lim tizimiga yuqori samarali xalqaro amaliyotni joriy etish;
- yakuniy davlat attestatsiyasi;
- davlat-jamoatchilik nazorati;
- tashqi nazorat;
- ta’lim sifatini oshirishda ichki nazorat va hisobdorlik mexanizmlari;
- xalqaro e’tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingi. «2+500» va «8+1000» loyihalari;
- oliy ta’lim tashkilotlarining milliy reytingi;
- ta’lim sifatini nazorat qilish va oliy ta’lim muassasalari reytingini yuritishning nodavlat tizimini yaratish;
- ta’limda o‘quv-tarbiya jarayonlari, professor-o‘qituvchilar tarkibi, kadrlar

tayyorlash va ularning malakasini oshirish sifatini nazorat qilishda rahbar kadrlarning o'rni;

- ta'lim sifatini ta'minlash jarayonlarini elektron ta'lim boshqaruv tizimi orqali nazorati asoslari ularni amalga oshirishdagi mavjud kamchiliklar va ularni bartaraf etish bo'yicha **bilimlarga ega bo'lishi**;
- ta'lim muassasalari faoliyatini baholash ko'rsatkichlari va mezonlari bo'yicha ishlash;
- ta'lim muassasalarini attestatsiyasidan va davlat akkreditatsiyasilan o'tkazish;
- ta'lim muassasalarini ichki va tashqi baholash;
- talabalar bilimini baholash tizimini qo'llash;
- ta'lim tizimiga yuqori samarali xalqaro amaliyotni joriy etish;
- nazorat turlarini qo'llash;
- xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingi. «2+500» va «8+1000» loyihalarini amaliyotda qo'llash;
- oliy ta'lim tashkilotlarining milliy reytingini aniqlash;
- ta'lim sifatini ta'minlash jarayonlarini elektron ta'lim boshqaruv tizimi orqali nazorat qilishni qo'llash bo'yicha **ko'nikma va malakalarni egallashi;**
- ta'lim muassasalarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish va xuldosa tayyorlash;
- ta'lim muassasalarida ichki, tashqi, davlat-jamoatchilik nazoratini o'tkazish;
- oliy ta'lim muassasalarini reytingiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash bo'yicha **kompetensiyalarni egallashi lozim.**

## Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar

"Ta'lim sifati monitoringi va nazorati" moduli ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan:

- ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida taqdimot va elektron-didaktik texnologiyalardan;
- o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda texnik vositalardan, blis-so'rovlar, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, va boshqa interfaol ta'lim metodlarini qo'llash nazarda tutiladi.

## Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi

"Ta'lim sifati monitoringi va nazorati" moduli bo'yicha mashg'ulotlar o'quv

rejasidagi “Universitet 3.0 modeli va ta’lim sifatini ta’minlash masalalari”, “Ta’lim sifatini ta’minlashda xalqaro tajribalar” kabi modullar bilan uzviy aloqadorlikda olib boriladi.

**Modulning oliy ta’limdagi o‘rni**

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar nazorat turlari va ularni qo‘llash, ta’lim muassasalari faoliyatini baholash, oliy ta’lim muassasalarini reytingini aniqlashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar.

## MODUL BO‘YICHA SOATLAR TAQSIMOTI

| № | Modul mavzulari | Auditoriya o‘quv yuklamasi | | |
|---|---|---|---|---|
| | | Jami | Nazariy | Amaliy mashg‘ulot |
| 1. | **Ta’lim muassasalari faoliyatini baholash ko‘rsatkichlari va mezonlari.** Ta’lim muassasalarini attestatsiyasi va davlat akkreditatsiyasi. Ta’lim muassasalarini ichki va tashqi baholash. | 4 | 2 | 2 |
| 2. | Talabalar bilimini baholash tizimi. Ta’lim tizimiga yuqori samarali xalqaro amaliyotni joriy etish. Yakuniy davlat attestatsiyasi. Davlat-jamoatchilik nazorati. Tashqi nazorat. Ta’lim sifatini oshirishda ichki nazorat va hisobdorlik mexanizmlari. | 2 | 2 | |
| 3. | **Oliy ta’lim muassasalari reytingini aniqlash.** Xalqaro e’tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingi. «2+500» va «8+1000» loyihalari. Oliy ta’lim tashkilotlarining milliy reytingi. Ta’lim sifatini nazorat qilish va oliy ta’lim muassasalari reytingini yuritishning nodavlat tizimini yaratish. | 4 | | 4 |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 4. | **Ta'limda o'quv-tarbiya jarayonlari, professor-o'qituvchilar tarkibi va oliy ta'lim muassasalarida jamoatchilik nazorati.** Ta'lim sifatini ta'minlash jarayonlarini elektron ta'lim boshqaruv tizimi orqali nazorati. Ta'lim sifatini ta'minlashda jamoatchilik nazoratining o'rni. Ta'lim sifatini ta'minlashda jamoatchilik nazoratining o'rnini to'g'ri baholash va tegishli xulosalar chiqarish. Oliy ta'lim muassasalarida samarali jamoatchilik nazoratini joriy etish. | 2 | | 2 |
| | **Jami:** | **12** | **4** | **8** |

## NAZARIY MATERIALLAR

### 1-MAVZU. TA'LIM MUASSASALARI FAOLIYATINI BAHOLASH KO'RSATKICHLARI VA MEZONLARI.
### (2 soat)

Ta'lim muassasalari faoliyatini baholash ko'rsatkichlari va mezonlari. Ta'lim muassasalarini attestatsiyasi va davlat akkreditatsiyasi. Ta'lim muassasalarini ichki va tashqi baholash.

### 2-MAVZU. TALABALAR BILIMINI BAHOLASH TIZIMI. TA'LIM TIZIMIGA YUQORI SAMARALI XALQARO AMALIYOTNI JORIY ETISh. (2 soat)

Talabalar bilimini baholash tizimi. Ta'lim tizimiga yuqori samarali xalqaro amaliyotni joriy etish. Yakuniy davlat attestatsiyasi. Davlat-jamoatchilik nazorati. Tashqi nazorat. Ta'lim sifatini oshirishda ichki nazorat va hisobdorlik mexanizmlari.

## AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

### 1-MAVZU: TA'LIM MUASSASALARI FAOLIYATINI ICHKI VA TASHQI BAHOLASHNI AMALGA OSHIRISH.
### (2 soat)

Ta'lim muassasalarini ichki baholash va ma'lumot tayyorlash. Ta'lim maussalarini tashqi baholash va xulosa tayyorlash. Tashqi baholash natijalari.

## 2-MAVZU: OLIY TA’LIM MUASSASALARI REYTINGINI ANIQLASH. (4 soat)

Oliy ta’lim muassasalari reytingi bo‘yicha xorijiy tajriba. Xalqaro e’tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingi. «2+500» va «8+1000» loyihalari. Oliy ta’lim tashkilotlarining milliy reytingi. Ta’lim sifatini nazorat qilish va oliy ta’lim muassasalari reytingini yuritishning nodavlat tizimini yaratish. Oliy ta’lim muassasalarining reyting natijalari va ularning qiyosiy tahlili.

## 3-MAVZU: TA’LIMDA O‘QUV-TARBIYA JARAYONLARI, PROFESSOR-O‘QITUVCHILAR TARKIBI VA OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA JAMOATCHILIK NAZORATI. (2 soat)

Oliy ta’lim muassalari professor-o‘qituvchilari tarkibi va ularni ishga qabul qilish, tanlovdan o‘tkazish mexanizmlari. Ta’lim sifatini ta’minlash jarayonlarini elektron ta’lim boshqaruv tizimi orqali nazorati. Ta’lim sifatini ta’minlashda jamoatchilik nazoratining o‘rni. Ta’lim sifatini ta’minlashda jamoatchilik nazoratining o‘rnini to‘g‘ri baholash va tegishli xulosalar chiqarish. Oliy ta’lim muassasalarida samarali jamoatchilik nazoratini joriy etish.

## O‘QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ma’lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, motivatsiyani rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko‘rilayotgan loyiha yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini rivojlantirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

**I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari:**

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

**II. Normativ-huquqiy hujjatlar:**

6. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.–T.:O‘zbekiston, 2018.
7. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabr “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmoni.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
14. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagi «Oliy ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 343-sonli Qarori.
15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 10

yanvardagi “Oliy ta’limning Davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2001 yil 16 avgustdagi “343-sonli qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi 3-sonli qarori.

16. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 7 iyundagi qarori bilan tasdiqlangan “Davlat ta’lim muassasalari hamda nodavlat ta’lim tashkilotlarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida nizom”.

17. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 7 iyundagi qarori bilan tasdiqlangan “Oliy ta’lim muassasalari reytingini aniqlash tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 467-sonli qarori.

18. Ta’lim tashkilotlarini attestatsiyadan o‘tkazish mezonlari [O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020 yil 27 yanvarda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3214].

## III. Maxsus adabiyotlar:

1. Usmonov B.Sh., Xabibullaev R.A. Oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O‘quv qo‘llanma. T.: “Tafakkur” nashriyoti, 2020 y. 120 bet.

2. O‘rinov V. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalarida ECTS kredit-modul tizimi: asosiy tushunchalar va qoidalar. O‘quv qo‘llanma. Nyu Bransvik Universiteti, 2020 y.

3. Oliy ta’limning me’yoriy - huquqiy  xujjatlari to‘plami. -T., 2013.

4. Rasprostranenie Bolonskogo protsessa: o deklaratsii k vnedreniyu na praktike. V 3-x chastyax. Chast 2. Tendensii razvitiya Bolonskogo protsessa, yego instrumentы i opыt vnedreniya / R.R. Agishev, I.V. Anisimova, Sh.M. Valitov, D.A. Gopkalo, V.G. Kryukov, A.Ye. Pushkina, L.A. Simonova, A.P. Snegurenko. Pod red. prof. R.R. Agisheva. - Kazan, KGTU im. A.N. Tupoleva, 2008. - 118 s.

5. The European Higher Education Area. - Joint Declaration of the Ministers of Education. - Bologna, 1999, 19 June.

6. Shaping our Own Future in the European Higher Education Area // Convention of European Higher Education Institutions. - Salamanca, 2001, 29-30 march.

## IV. Internet saytlar:

7. http://edu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.

8. http://lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

9. http://bimm.uz – Oliy ta'lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi.

10. http://ziyonet.uz – Ta'lim portali ZiyoNET.

- http://natlib.uz – Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi.

# II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI

## II. FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA'LIM METODLARI

**"Nima uchun?" texnologiyasi.**

Nima uchun sxemasi mavjud muammoni keltirib chiqargan sabablarini aniqlashga yordam beruvchi sxemadir. Sabab-oqibat qonuniga asosan muammoni keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlamay turib muammoni hal etish qiyin. Muammoni yechimini topish uchun uni keltirib chiqargan sabablarni aniqlash va yo'qotish talab etiladi. Tinglovchilarda sabab-oqibat qonuniyati asosida fikr yuritishni tarbiyalash muhim. Ushbu sxema tinglovchilarda aynan ana shu xususiyatni rivojlantiradi. Tinglovchilarda tizimli, ijodiy, tahliliy mushohada qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

***NIMA UCHUN?*** → muammoni aniqlash, uni hal etish, tahlil qilish va rejalashtirish jarayonida qo'llash mumkin

**"Nima uchun"? sxemasiga asosan tinglovchilar faoliyatini tashkil etish ketma-ketligi**

**1-bosqich**

Tinglovchilarni "Nima uchun"? sxemasini tuzish qoidalari bilan tanishtirish

↓

**2-bosqich**

Yakka tartibda ( juftlikda) muammo shakllantiriladi. Nima uchun? so'rog'i bilan strelka chiziladi va savolga javob yoziladi. Qayta-qayta "nima uchun" degan savol berib boriladi. Muammoni keltirib chiqargan ildiz yashiringan sababi topilguncha davom ettiriladi.

↓

**3-bosqich**

Tinglovchilar kichik guruhlarga birlashtiriladi, o‘z sxemalarini taqqoslashga va qo‘shimcha kiritishga imkon yaratiladi. Umumiy sxema jamlanadi.

**4-bosqich**

Natijalar taqdimoti uyushtiriladi. Faoliyat natijalari baholanadi.

**«Nima uchun?» texnologiyasining sxemadagi ko‘rinishi**




**“Nima uchun”? sxemasini tuzish qoidalari.**

1. Qanday piktogrammadan foydalanishni o‘zingiz hal etasiz.
2. Mulohazalarning sxematik ko‘rinishi qanday bo‘lishini o‘zingiz hal etasiz.
3. Har bir strelka fikr yo‘nalishini ko‘rsatishi lozim.

# III. NAZARIY MATERIALLAR

# III. NAZARIY MASHG‘ULOTLAR

## 1-MAVZU: TA’LIM MUASSASALARI FAOLIYATINI BAHOLASH KO‘RSATKICHLARI VA MEZONLARI. (2 soat)

**Reja:**

1. **Ta’lim muassasalari faoliyatini baholash ko‘rsatkichlari va mezonlari.**
2. **Ta’lim muassasalarini attestatsiyasi va davlat akkreditatsiyasi.**
3. **Ta’lim muassasalarini ichki va tashqi baholash.**

**Tayanch tushunchalar:** *Attestatsiya, davlat akkreditatsiyasi, ichki baholash, tashqi baholash.*

### 1. Ta’lim muassasalari faoliyatini baholash ko‘rsatkichlari va mezonlari.

“O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalarining faoliyatini baholash tegishli Ta’lim muassasalari davlat attestatsiyasi va akkreditatsiyasi haqidagi nizomga muvofiq tartibga solinadi.

**Davlat ta’lim muassasalari hamda nodavlat ta’lim tashkilotlarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida nizom O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 7 iyundagi 470-sonli qaroriga ilova bilan tasdiqlangan.**

Ushbu Nizom «Ta’lim to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq idoraviy mansubligi va tashkiliy-huquqiy shakllaridan qat’i nazar O‘zbekiston Respublikasining maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar, maktabdan tashqari, oliy, oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limni amalga oshiruvchi oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash davlat ta’lim muassasalarini hamda nodavlat ta’lim tashkilotlarini (keyingi o‘rinlarda ta’lim tashkilotlari deb ataladi) attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan (keyingi o‘rinlarda akkreditatsiya deb ataladi) o‘tkazish tartibini belgilaydi.

**Ushbu Nizom O‘zbekiston Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi qoshidagi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Biznes va boshqaruv respublika oliy maktabi hamda harbiy ta’lim muassasalariga nisbatan ham tatbiq etiladi.**

Harbiy ta’lim muassasalarini attestatsiyadan va akkreditatsiyadan o‘tkazishda davlat, harbiy, xizmat sirlari yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirlarga oid

ma'lumotlarni talab qilishga yo'l qo'yilmaydi.

Ta'lim tashkilotlari attestatsiyasi (keyingi o'rinlarda attestatsiya deb ataladi) va akkreditatsiyasi O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida«gi Qonunida hamda ushbu Nizomda belgilangan talablar asosida o'tkaziladi.

Ta'lim tashkilotlarini akkreditatsiyadan o'tkazish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi (keyingi o'rinlarda Davlat inspeksiyasi deb ataladi) tomonidan attestatsiyaga asosan amalga oshiriladi.

Attestatsiya ta'lim tashkilotining faoliyatini baholashda davlat nazoratining asosiy shakli hisoblanadi va ta'lim tashkilotlarida kadrlar tayyorlash mazmuni, darajasi va sifatining davlat ta'lim standartlari hamda davlat talablariga muvofiqligini aniqlashdan iborat.

Attestatsiyaning asosiy prinsiplari quyidagilar hisoblanadi:

mustaqillik;

xolislik;

oshkoralik;

shaffoflik;

odillik;

davriylik.

Akkreditatsiya ta'lim tashkilotlari faoliyatining davlat ta'lim standartlari va davlat talablari mezon va talablariga muvofiqligining davlat tomonidan e'tirof etilishi hamda ularning bitiruvchilariga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ma'lumot to'g'risidagi hujjatlarni topshirish huquqini berishdan iborat.

**Yangi tashkil etilgan ta'lim tashkilotlari ular tashkil etilgan paytdan boshlab 5 yil muddatga akkreditatsiyadan o'tgan deb hisoblanadi.**

Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari tashkil etilgan paytdan boshlab 6 yil muddatga akkreditatsiyadan o'tgan deb hisoblanadi.

Belgilangan muddatlar tugaganidan so'ng ta'lim tashkilotlari akkreditatsiyadan o'tkazilishi shart.

**Litsenziyaga ega bo'lgan nodavlat ta'lim tashkilotlari tomonidan davlat namunasidagi ma'lumot to'g'risidagi hujjat davlat ta'lim standartlari yoki davlat talablari asosida ta'lim olgan bitiruvchilarga beriladi.**

Davlat ta'lim standartlari yoki davlat talablaridan tashqari ta'lim dasturlari asosida ta'lim olgan nodavlat ta'lim tashkilotlari bitiruvchilariga davlat namunasidagi ma'lumot to'g'risidagi hujjat berilmaydi.

Ta'lim tashkilotlarini akkreditatsiyadan o'tkazish quyidagi bosqichlardan iborat:

attestatsiyadan o'tkazish jarayoniga tayyorgarlik ko'rish;

ta'lim tashkilotlarini attestatsiyadan o'tkazish va uning natijalarini tahlil

qilish;

attestatsiya natijalariga ko‘ra ta’lim tashkilotlarini akkreditatsiyadan o‘tkazish bo‘yicha qaror qabul qilish;

attestatsiyadan o‘tkazish jarayonida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlarini belgilash;

attestatsiya natijalari bo‘yicha ishlab chiqilgan chora-tadbirlar ijrosini nazorat qilish.

Davlat inspeksiyasi O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi, Xalq ta’limi vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Innovatsion rivojlanish vazirligi hamda tizimida davlat ta’lim muassasalari bo‘lgan boshqa vazirliklar va idoralar bilan kelishgan holda ushbu Nizom talablaridan kelib chiqib ta’lim tashkilotlarini attestatsiyadan o‘tkazish mezonlarini ishlab chiqadi hamda attestatsiya ular asosida o‘tkaziladi.

## 2. Ta’lim muassasalarini attestatsiyasi va davlat akkreditatsiyasi.

Attestatsiya Davlat inspeksiyasi tomonidan tashkil etiladi.

Attestatsiya ta’lim tashkilotlarining faoliyatini ichki va tashqi baholashdan iborat ikki bosqichda amalga oshiriladi.

Ta’lim tashkilotlarining faoliyatini ichki baholash ta’lim tashkilotlari tomonidan o‘zini o‘zi baholash hisoblanadi.

Ta’lim tashkilotlarining faoliyatini tashqi baholash ichki baholash o‘tkazilganidan keyin ta’lim tashkilotlari faoliyatiga Davlat inspeksiyasi tomonidan baho berish hisoblanadi.

Quyidagilar ta’lim tashkilotlari faoliyatini ichki baholashning asosiy maqsadi hisoblanadi:

ta’lim tashkilotlari yoki ta’lim dasturlarini (ta’lim yo‘nalishlari, mutaxassisliklar, ixtisosliklar, kasblar va kurslar) attestatsiya ko‘rsatkichlari va mezonlari asosida baholash;

ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifati va mazmunining davlat ta’lim standartlari va davlat talablariga muvofiqligini aniqlash;

ta’lim tashkilotlarining faoliyatidagi mavjud muammolar va kamchiliklarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish choralarini ko‘rish;

ta’lim tashkilotlarini tashqi baholashdan o‘tkazishga tayyorlash.

Ichki baholash oliy ta’lim muassasalarida ushbu muassasalarning ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limlari tomonidan, boshqa ta’lim tashkilotlarida ta’lim tashkilotlari rahbarlarining buyrug‘i bilan tashkil etiladigan ichki baholash komissiyalari tomonidan amalga oshiriladi.

Komissiyalar tomonidan ta’lim tashkilotlari faoliyatini ichki baholash tashqi baholashdan kamida bir oy oldin o‘tkaziladi.

Ta'lim tashkilotlarining faoliyatini tashqi baholashdan o'tkazish uchun ekspert komissiyalari tashkil etiladi.

Ekspert komissiyalari tomonidan ta'lim tashkilotlari faoliyatini tashqi baholash quyidagi muddatlarda o'tkaziladi:

maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlarida — 3 ish kunigacha;

kasb-hunar ta'limi tashkilotlarida — 6 ish kunigacha;

kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta'lim tashkilotlarida — 10 ish kunigacha.

oliy ta'lim tashkilotlari, shuningdek, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni amalga oshiruvchi oliy ta'lim tashkilotlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarida — 12 ish kunigacha.

Ta'lim tashkilotlari yoki ta'lim dasturlari (ta'lim yo'nalishlari, mutaxassisliklar, ixtisosliklar, kasblar va kurslar) 5 yilda bir marta attestatsiyadan o'tkaziladi.

Ta'lim tashkilotlari tarkibidagi filiallar va oliy ta'lim tashkilotlari tarkibidagi oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim instituti attestatsiyasi ta'lim tashkilotlari attestatsiyasi bilan bir vaqtda o'tkaziladi.

Attestatsiya jarayonida ta'lim turlari bo'yicha ta'lim tashkilotlarining oxirgi ikki yillik faoliyatini kompleks tahlil qilish asosida quyidagilarga alohida e'tibor beriladi:

oliy ta'lim tashkilotlarida:

tashkiliy-boshqaruv faoliyatining samaradorligi;

davlat ta'lim standartlarining o'quv jarayoniga joriy etilishi;

talabalarning fan dasturlarini o'zlashtirish darajasi (bilimi);

professor-o'qituvchilarning ilmiy-pedagogik salohiyati va ular mutaxassisliklarining (ixtisosliklarining) dars berayotgan fanlariga muvofiqligi;

talabalarning darslik (elektron darslik) va o'quv qo'llanmalari bilan ta'minlanganligi darajasi, elektron kutubxona tizimining mavjudligi, undan foydalanish samaradorligi va mustaqil ta'lim bo'yicha axborot resurslaridan foydalanish imkoniyatining yaratilganligi;

moddiy-texnika ta'minoti, o'quv laboratoriyalarining zamonaviy asbob-uskunalar bilan hamda foydali o'quv-laboratoriya maydoni bilan ta'minlanganligi darajasi;

elektron ta'limning joriy etilishida zamonaviy pedagogik, axborot-kommunikatsiya va innovatsion texnologiyalarning qo'llanilishi;

ta'limning ishlab chiqarish va ilm-fan bilan integratsiyasi;

ilmiy-tadqiqot faoliyati;

ma'naviy-ma'rifiy faoliyati;

bitiruvchilarning ta’limning keyingi bosqichlariga o‘qishga yoki ishga joylashishi;

xalqaro hamkorlikning yo‘lga qo‘yilganligi;

abiturientlarni o‘qishga qabul qilish jarayonining tashkil etilishi va amalga oshirilishi;

bitiruvchilar tomonidan bitiruv malakaviy ishlari va magistrlik dissertatsiyalari bajarilishi (sifati), yakuniy davlat attestatsiyasiga oid faoliyat va uning natijalari;

ish beruvchilarning bitiruvchilar bilimi, malakasi va ko‘nikmalaridan qoniqishi holati;

oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limni amalga oshiruvchi oliy ta’lim tashkilotlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarida:

davlat talablarining ta’lim jarayoniga joriy etilishi;

ilmiy rahbar va maslahatchilar tarkibining sifat ko‘rsatkichlari hamda ularning ilmiy-tashkiliy faoliyati natijalari;

ta’limni amalga oshirish jarayoniga jalb etilgan pedagog va ilmiy xodimlarning O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi e’tirof etgan jurnallarda, shuningdek, xorijiy nashrlarda ilmiy maqolalarni chop etish faoliyati;

ilmiy-eksperimental, moddiy-texnika bazaning holati;

doktorant va mustaqil izlanuvchilarga ijtimoiy, ilmiy, ijodiy hamda loyihalash ishlarini olib borishlari uchun yaratilgan shart-sharoitlar;

doktorant va mustaqil izlanuvchilar shaxsiy ish rejalarining bajarilishi, hisobotlarining oliy ta’lim tashkilotlarining yoki ilmiy-tadqiqot muassasalarining kollegial organlarida (ilmiy kengash, kengash, ilmiy-texnikaviy kengash, ilmiy-muvofiqlashtiruvchi kengash va boshqalarda) muhokama qilinganligi hamda tasdiqlangan rejaga mos deb topilganligi;

doktorant va mustaqil izlanuvchilar faoliyati samaradorligi monitoringining olib borilishi holati;

oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim institutini bitirgan doktorantlar va mustaqil izlanuvchilarning falsafa doktori (PhD) va fan doktori (Doctor of Science) dissertatsiyalarini himoya qilishi holati;

kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta’lim tashkilotlarida:

tashkiliy-boshqaruv faoliyatining samaradorligi;

davlat talablarining o‘quv jarayoniga joriy etilishi;

moddiy-texnika ta’minoti;

pedagog kadrlarning ilmiy-pedagogik salohiyati;

o‘quv jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining joriy etilishi;

ta'limning ishlab chiqarish bilan integratsiyasi hamda xalqaro hamkorlik faoliyati;

bitiruv imtihonlari, malaka va bitiruv ishlarining bajarilishi;

malaka oshirish va qayta tayyorlash yakuni bo'yicha diplomlar, guvohnomalar, sertifikatlar rasmiylashtirilishi va berilishi.

Nodavlat ta'lim tashkilotlari hamda o'zini o'zi to'liq moliyalashtiradigan davlat ta'lim muassasalarini attestatsiyadan o'tkazganlik uchun quyidagi miqdorlarda yig'im undiriladi:

maktabgacha, umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'lim bo'yicha — eng kam oylik ish haqining o'n besh baravari;

o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi bo'yicha tegishliligiga ko'ra attestatsiyaga jalb etiladigan har bir ta'lim yo'nalishi va kasb uchun — eng kam oylik ish haqining yetti baravari;

oliy ta'lim bo'yicha attestatsiyaga jalb etiladigan har bir ta'lim yo'nalishi va mutaxassislik uchun — eng kam oylik ish haqining o'n ikki baravari;

oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim bo'yicha attestatsiyaga jalb etiladigan har bir ixtisoslik uchun — eng kam ish haqining olti baravari;

malaka oshirish va qayta tayyorlash ta'limi bo'yicha attestatsiyaga jalb etiladigan har bir kurs uchun — eng kam oylik ish haqining besh baravari.

Attestatsiyadan o'tkazganlik uchun yig'im Davlat inspeksiyasining budjetdan tashqari hisob raqamiga o'tkaziladi va attestatsiya bilan bog'liq xarajatlarni qoplash uchun yo'naltiriladi.

Ta'lim tashkilotlari tomonidan akkreditatsiya muddati tugaydigan yildan oldingi yilning 1 oktabriga qadar Davlat inspeksiyasiga attestatsiyadan o'tkazish to'g'risida ariza taqdim qilinadi.

Ta'lim tashkilotlarining attestatsiyadan o'tkazish to'g'risidagi arizasiga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tganlik to'g'risidagi guvohnoma nusxasi;

ta'lim tashkilotining to'liq va qisqartirilgan nomi, joylashgan joyi, telefon raqami, Internet jahon axborot tarmog'idagi rasmiy veb-sayti va elektron pochta manzili to'g'risidagi ma'lumot (filiali mavjud bo'lgan ta'lim tashkiloti ma'lumotlarni filial bo'yicha ham taqdim etadi);

soliq to'lovchining identifikatsiya raqami;

attestatsiyadan o'tkazish uchun yig'im to'langanligini tasdiqlovchi hujjatning nusxasi (nodavlat ta'lim tashkilotlari va o'zini o'zi to'liq moliyalashtiradigan davlat ta'lim muassasalari uchun);

attestatsiyadan o'tkaziladigan ta'lim yo'nalishlari, mutaxassisliklar, ixtisosliklar, kurslar va kasblar ro'yxati.

**Tizimida davlat ta’lim muassasalari bo‘lgan vazirliklar va idoralar hamda nodavlat ta’lim tashkilotlari attestatsiyadan o‘tkazish jadvalini hamda attestatsiyaga oid boshqa hujjatlarni ta’lim tashkilotlari faoliyatini tashqi baholash boshlanishidan kamida ikki oy oldin Davlat inspeksiyasidan oladilar.**

Attestatsiya o‘tkazish jadvali va attestatsiyaga oid boshqa hujjatlar olingan kundan boshlab ta’lim tashkilotlari faoliyatini ichki baholash tashkil etiladi va o‘tkaziladi.

**Ta’lim tashkilotlari faoliyatini ichki baholash natijasida to‘plangan ma’lumotlar va materiallar, Davlat inspeksiyasi tomonidan taqdim etilgan ta’lim tashkiloti faoliyatiga oid ma’lumotlar kiritilgan jadvallar tashqi baholash boshlanishidan kamida bir oy oldin Davlat inspeksiyasiga yuboriladi.**

Belgilangan muddatda hujjatlarning taqdim etilmasligi yoki hujjatlardagi kamchiliklarning bartaraf etilmasligi ta’lim tashkilotining attestatsiyadan o‘tkazilmasligiga asos bo‘ladi.

Ta’lim tashkilotlari tomonidan akkreditatsiyadan o‘tkazish to‘g‘risidagi ariza va unga ilova qilinadigan hujjatlar, ta’lim tashkilotlari faoliyatini ichki baholash natijasida to‘plangan ma’lumotlar va materiallar Davlat inspeksiyasiga quyidagi shakllardan birida taqdim etiladi:

a) qog‘oz shaklida — ta’lim tashkilotining ishonchli vakili yoxud pochta aloqasi xizmati orqali;

b) elektron shaklda — ta’lim tashkiloti rahbarining elektron raqamli imzosi bilan Davlat inspeksiyasining rasmiy veb-saytidagi maxsus portal orqali.

Davlat inspeksiyasida attestatsiyadan o‘tuvchi ta’lim tashkiloti uchun attestatsiyadan va akkreditatsiyadan o‘tkazish bilan bog‘liq bo‘lgan hujjatlar yig‘majildi yig‘iladi. Unda quyidagilar jamlanadi:

ekspert komissiyasini tuzish haqidagi buyruq yoki qaror;

attestatsiya natijalari bo‘yicha ekspert komissiyasi xulosasi;

akkreditatsiya bo‘yicha Davlat inspeksiyasi boshlig‘ining buyrug‘i;

attestatsiyadan va akkreditatsiyadan o‘tkazish bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa hujjatlar.

Hujjatlar yig‘majildi navbatdagi attestatsiya o‘tkazilgunga qadar Davlat inspeksiyasida saqlanadi.

O‘rta maxsus, kasb-hunar, oliy, oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limni amalga oshiruvchi oliy ta’lim tashkilotlari va ilmiy-tadqiqot muassasalari, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta’lim tashkilotlarini attestatsiyadan o‘tkazuvchi ekspert komissiyalari tarkibi Davlat inspeksiyasi boshlig‘ining buyrug‘i bilan tasdiqlanadi hamda unga Davlat inspeksiyasi xodimi rahbarlik

qiladi.

Ekspert komissiyalari tarkibiga tegishli ravishda ta'lim tashkilotlarining pedagog va rahbar xodimlari, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi va Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarining yetakchi olimlari, vazirliklar va idoralar hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari mas'ul xodimlari, tegishli ishlab chiqarish korxonalarining yuqori malakali mutaxassislari, nodavlat notijorat tashkilotlar vakillari jalb etiladi. Bunda ular attestatsiyadan o'tkazilayotgan ta'lim tashkilotlariga aloqador bo'lmasligi lozim. Ekspert komissiyalari tarkibiga xorijiy ekspertlar ham kiritilishi mumkin.

O'rta maxsus, kasb-hunar, oliy, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni amalga oshiruvchi oliy ta'lim tashkilotlari va ilmiy-tadqiqot muassasalari, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta'lim tashkilotlarini attestatsiyadan o'tkazuvchi ekspert komissiyalari tarkibini shakllantirish uchun Davlat inspeksiyasi tomonidan ekspertlar ro'yxati tuziladi hamda ushbu ro'yxatdagi ekspertlar orasidan Davlat inspeksiyasi tegishli ekspertlarni tanlab oladi.

Ekspertlar ro'yxati Davlat inspeksiyasining so'roviga muvofiq tegishli vazirliklar va idoralar, davlat organlari va tashkilotlari, nodavlat notijorat tashkilotlar tomonidan taqdim etilgan nomzodlardan ta'lim turlari, ta'lim yo'nalishlari, mutaxassisliklar, ixtisosliklar, kurslar va kasblarni hisobga olgan holda shakllantiriladi.

Ekspertlarga qo'yiladigan talablar, ularni tanlab olish va attestatsiya jarayoni bo'yicha seminarlar tashkil etish Davlat inspeksiyasi tomonidan belgilanadi.

Ekspert komissiyalarining vazifalari quyidagilardan iborat:

ta'lim tashkilotining faoliyatini ichki baholash natijalari bo'yicha olingan ma'lumotlarning haqqoniyligini tekshirish;

ta'lim tashkilotidagi ta'lim sifati va mazmunining davlat ta'lim standartlari va davlat talablariga muvofiqligi hamda ko'rsatilayotgan ta'lim xizmatlarining sifati va samaradorligini baholash;

ta'lim sifatini oshirish va ta'lim xizmatlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar berish;

ta'lim tashkilotlarining faoliyatini tashqi baholash yuzasidan xulosa tayyorlash va Davlat inspeksiyasiga taqdim etish.

Ta'lim tashkilotlarining faoliyatini tashqi baholash ekspert komissiyalari tomonidan tegishli ta'lim tashkilotlariga bormay, ular tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar va materiallarni o'rganish asosida Davlat inspeksiyasida ham amalga oshirilishi mumkin.

Ta'lim tashkilotlari tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar davlat ta'lim standartlari va davlat talablariga mos kelmasligi holatlari aniqlangan taqdirda,

ekspert komissiyalari tomonidan qo‘shimcha ma’lumotlar so‘rab olinishi mumkin. Ta’lim tashkilotlarining rahbarlari ekspert komissiyalari tomonidan so‘ralgan ma’lumotlar va hujjatlarni taqdim etishlari shart.

Ta’lim faoliyati masofaviy ta’lim texnologiyalari asosida olib boriladigan ta’lim tashkilotlarida ekspert komissiyalari a’zolariga ta’lim oluvchilarning erishgan natijalari, ular tomonidan fan dasturlari o‘zlashtirishi holati va ta’lim faoliyati bilan bog‘liq boshqa ma’lumotlarni olish uchun elektron ma’lumotlar bazasiga kirishga ruxsat beriladi.

Davlat ta’lim muassasalarini tashqi baholashdan o‘tkazish bo‘yicha ekspertlar komissiyalari a’zolarining xizmat safarlari bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar ularning asosiy ish joyi mablag‘lari hisobiga qoplanadi.

Bunda tegishli budjet tashkilotlaridan jalb qilingan ekspert komissiyalari a’zolarining xizmat safari bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlari ushbu budjet tashkilotlarining tasdiqlangan xarajatlar smetasida xizmat safari uchun nazarda tutilgan mablag‘lar doirasida amalga oshiriladi.

Nodavlat ta’lim tashkilotlari va to‘liq o‘zini o‘zi moliyalashtiradigan davlat ta’lim muassasalarini tashqi baholashdan o‘tkazish uchun jalb etilgan ekspert komissiyalari a’zolariga Davlat inspeksiyasi bilan tuziladigan fuqarolik-huquqiy shartnomalar asosida haq to‘lanadi. Ekspert komissiyalari a’zolariga to‘lanadigan haq miqdori ularning bajargan ishlariga mutanosib ravishda tomonlar kelishuviga muvofiq belgilanadi.

Ekspert komissiyalari tarkibi va ish muddati ta’lim tashkilotlarining turi hamda ta’lim yo‘nalishlari, mutaxassisliklar, ixtisosliklar, kurslar va kasblar soniga qarab belgilanadi.

Attestatsiya natijalari asosida ekspert komissiyalari tomonidan ta’lim tashkilotida kadrlar tayyorlash mazmuni, darajasi va sifatining davlat ta’lim standartlari hamda davlat talablariga muvofiqligi haqida xulosa tayyorlanadi.

Ekspert komissiyalari tomonidan ta’lim tashkilotlari faoliyatini ichki baholash natijalari va boshqa taqdim etilgan hujjatlarda haqqoniy bo‘lmagan ma’lumotlarning aniqlanishi ta’lim tashkilotlarining (ta’lim dasturlarining) «attestatsiyadan o‘tmadi» deb e’tirof etilishiga sabab bo‘ladi hamda davlat namunasidagi ta’lim to‘g‘risidagi hujjat berish huquqidan mahrum etiladi. Bunday holatda ta’lim tashkilotiga bir yildan so‘ng qayta attestatsiyadan o‘tish uchun ariza bilan murojaat qilish imkoniyati beriladi.

Ekspert komissiyalari ta’lim tashkilotlari rahbariyati bilan birgalikda ta’lim tashkiloti faoliyatida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqadi. Davlat inspeksiyasi attestatsiyadan o‘tkazish jarayonida aniqlangan kamchiliklarni o‘z vaqtida bartaraf etish ustidan nazoratni tashkil qiladi.

Ta'lim tashkilotlari tomonidan chora-tadbirlar rejasida belgilangan vazifalarning ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlar har chorak yakunida Davlat inspeksiyasining rasmiy veb-saytidagi elektron platformaga kiritib boriladi.

Attestatsiyadan o‘tkazish jarayonida aniqlangan kamchiliklar bartaraf etilmagan taqdirda, Davlat inspeksiyasi tomonidan tegishli vazirliklar va idoralarga taqdimnoma kiritiladi. Taqdimnomada ko‘rsatilgan kamchiliklar o‘z vaqtida bartaraf etilmasa, ta’lim tashkilotiga berilgan akkreditatsiya sertifikati bekor qilinadi. Bunda, ta’lim tashkiloti navbatdan tashqari attestatsiyadan o‘tkaziladi.

### 3. Ta’lim muassasalarini ichki va tashqi baholash.

Oliy ta’lim tashkilotida mavjud ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklarning umumiy soniga nisbatan 67 va undan ko‘p foizi «attestatsiyadan o‘tdi» deb xulosa qilinsa, oliy ta’lim tashkiloti «attestatsiyadan o‘tdi», 67 dan kam foizi attestatsiyadan o‘tganda «attestatsiyadan o‘tmadi» deb e’tirof etiladi.

«Attestatsiyadan o‘tdi» deb e’tirof etilgan oliy ta’lim tashkilotining attestatsiyadan o‘tmagan ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklariga ta’lim oluvchilarni o‘qishga qabul qilish to‘xtatiladi.

Oliy ta’lim tashkilotlarining attestatsiyadan o‘tmagan ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasi tarkibiga Davlat inspeksiyasining vakillari kiritilishi shart.

«Attestatsiyadan o‘tmadi» deb e’tirof etilgan oliy ta’lim tashkilotlari to‘g‘risida quyidagi xulosalardan biri qabul qilinadi:

davlat oliy ta’lim muassasasini qayta tashkil etish, tugatish yoki maqomini o‘zgartirish to‘g‘risida tizimida oliy ta’lim muassasalari bo‘lgan vazirliklar va idoralarga taqdimnoma kiritish;

nodavlat oliy ta’lim tashkilotlariga ta’lim oluvchilarni o‘qishga qabul qilishni to‘xtatish;

ta’lim oluvchilari bitirib chiqqanidan keyin nodavlat oliy ta’lim tashkilotlari litsenziyasining amal qilishini tugatish.

Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limni amalga oshiruvchi oliy ta’lim tashkilotlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarida kamida bitta ixtisoslik attestatsiyadan o‘tgan taqdirda, ular ushbu ta’lim turi bo‘yicha «attestatsiyadan o‘tdi» deb e’tirof etiladi.

Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim ixtisosliklarini oxirgi uch yilda bitirgan doktorantlar va mustaqil izlanuvchilar dissertatsiyalarining ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash tomonidan himoyaga qabul qilinganlari soni 10 foizdan kam bo‘lsa, ixtisoslikka nisbatan «attestatsiyadan o‘tmadi» degan qaror qabul qilinadi.

«Attestatsiyadan o‘tdi» deb e’tirof etilgan oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limni amalga oshiruvchi oliy ta’lim tashkilotlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarining

attestatsiyadan o‘tmagan ixtisosliklari bir yildan keyin qayta attestatsiyadan o‘tkaziladi.

Qayta attestatsiya natijalariga ko‘ra «attestatsiyadan o‘tmadi» deb e’tirof etilgan ixtisosliklarga qabul to‘xtatiladi. Qayta attestatsiya natijalari qabulni to‘xtatish bo‘yicha tegishli qaror qabul qilish uchun:

tizimida oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limni amalga oshiruvchi oliy va ilmiy-tadqiqot muassasalari bo‘lgan vazirliklar va idoralarga hamda O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligiga;

oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limni amalga oshiruvchi nodavlat oliy ta’lim tashkilotlarining muassislariga hamda O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligiga yuboriladi.

Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limni amalga oshiruvchi oliy ta’lim tashkilotlari va ilmiy-tadqiqot muassasalari «attestatsiyadan o‘tmadi» deb e’tirof etilganda:

oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim bo‘yicha qabul to‘xtatiladi;

ta’lim oluvchilari bitirib chiqqanidan keyin oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limni amalga oshiruvchi nodavlat oliy ta’lim tashkilotlarining oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim bo‘yicha litsenziyasining amal qilishi belgilangan tartibda tugatiladi;

ta’lim oluvchilar ilmiy ishlarini davom ettirishi uchun tasarrufida oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limni amalga oshiruvchi oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari bo‘lgan vazirliklar va idoralar hamda O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan boshqa oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limni amalga oshiruvchi oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalariga o‘tkaziladi;

xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmagan doktorantlar va mustaqil izlanuvchilarning shartnomalari ular o‘tkazilgan oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limni amalga oshiruvchi oliy ta’lim tashkilotlari va ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan qolgan muddatga qayta rasmiylashtiriladi;

boshqa oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limni amalga oshiruvchi oliy ta’lim tashkilotlari va ilmiy-tadqiqot muassasalari bo‘lmagan taqdirda ilmiy ishlarni ushbu oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limni amalga oshiruvchi oliy ta’lim tashkilotida yoki ilmiy-tadqiqot muassasasida davom ettirishga ruxsat beriladi.

Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limni amalga oshiruvchi oliy ta’lim tashkilotlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarini attestatsiyadan o‘tkazish O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining monitoringi natijalari hamda oliy ta’lim tashkilotlari yoki ilmiy-tadqiqot ta’lim muassasalari tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlar asosida joylarga chiqmagan holda ham

amalga oshirilishi mumkin.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta'lim tashkilotlari bo'yicha:

kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta'lim tashkilotlarining tashkiliy-boshqaruv faoliyati samaradorligi, davlat talablari va ularning ustavida belgilangan vazifalari, o'quv jarayonining tashkil etilishi, ilmiy-pedagog kadrlarning salohiyati, ilmiy-tadqiqot va metodik faoliyatining samaradorligi, moddiy-texnik ta'minoti, ishlab chiqarish bilan integratsiyasi va xalqaro hamkorlik bo'yicha faoliyati ta'lim tashkilotlarini attestatsiyadan o'tkazish mezonlari asosida baholanadi. Mezonlar asosida kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta'lim tashkilotlarida mavjud kurslarning 67 va undan ko'p foizi attestatsiyadan o'tsa, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta'lim tashkiloti «attestatsiyadan o'tdi», 67 dan kam foizi attestatsiyadan o'tsa, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta'lim tashkiloti «attestatsiyadan o'tmadi» deb e'tirof etiladi.

«Attestatsiyadan o'tdi» deb e'tirof etilgan kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta'lim tashkilotlarining attestatsiyadan o'tmagan qayta tayyorlash va (yoki) malaka oshirish kurslariga tinglovchilarni qabul qilish to'xtatiladi.

«Attestatsiyadan o'tmadi» deb e'tirof etilgan kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta'lim tashkilotlari to'g'risida quyidagi xulosalardan biri qabul qilinadi:

kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash davlat ta'lim muassasasini qayta tashkil etish yoki tugatish to'g'risida tasarrufida kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash davlat ta'lim muassasalari bo'lgan vazirliklar va idoralarga taqdimnoma kiritish;

kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash nodavlat ta'lim tashkilotlari litsenziyasining amal qilishini belgilangan tartibda to'xtatish.

Ta'lim oluvchilarni o'qishga qabul qilish to'xtatilgan ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklar, ixtisosliklar, kurslar va kasblarni qayta ochish masalasi ta'lim tashkilotlari faoliyatida ko'rsatilgan kamchiliklar to'la bartaraf etilganidan boshlab kamida uch yildan so'ng tegishli vazirliklar va idoralar yoki mahalliy hokimliklarning takliflari asosida Davlat inspeksiyasi tomonidan ko'rib chiqilishi mumkin.

«Attestatsiyadan o'tdi» deb e'tirof etilgan ta'lim tashkilotlarini akkreditatsiyadan o'tkazish uchun zarur hujjatlar Davlat inspeksiyasiga taqdim etiladi.

Ta'lim tashkilotlarini akkreditatsiyadan o'tkazish uchun Davlat inspeksiyasida doimiy faoliyat ko'rsatuvchi akkreditatsiya komissiyasi tuziladi.

Akkreditatsiya komissiyasi tarkibi Davlat inspeksiyasi boshlig‘ining buyrug‘i bilan tasdiqlanadi. Yuridik kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi ta’lim tashkilotlarini akkreditatsiyadan o‘tkazishda akkreditatsiya komissiyasi tarkibiga O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi mas’ul xodimi jalb etiladi. Davlat inspeksiyasi boshlig‘i akkreditatsiya komissiyasining raisi hisoblanadi.

Akkreditatsiya ta’lim tashkilotlarining attestatsiyasi xulosalariga ko‘ra amalga oshiriladi. Akkreditatsiya komissiyasi ta’lim tashkilotlari faoliyatining davlat ta’lim standartlari va davlat talablariga muvofiqligini e’tirof etish bilan birgalikda uning maqomini ham belgilaydi.

Ta’lim tashkilotini akkreditatsiyadan o‘tkazish uchun ekspert komissiyalari tomonidan ta’lim tashkilotining attestatsiyasi xulosasi akkreditatsiya komissiyasiga taqdim etiladi.

Ta’lim tashkilotini akkreditatsiyadan o‘tkazish haqidagi qaror akkreditatsiya komissiyasiga hujjatlar topshirilgandan keyin bir oy muddatda qabul qilinadi.

Ta’lim tashkilotini akkreditatsiyadan o‘tkazish yuzasidan ijobiy qaror qabul qilingan taqdirda, ikki hafta davomida ta’lim tashkilotining davlat akkreditatsiyasidan o‘tganligi to‘g‘risida sertifikat beriladi.

Sertifikatda ta’lim tashkilotining tashkiliy-huquqiy shakli, turi, maqomi va sertifikatning amal qilish muddati qayd etiladi.

Sertifikatga ta’lim tashkilotining davlat akkreditatsiyasidan o‘tgan ta’lim yo‘nalishlari, mutaxassisliklari, ixtisosliklari, kurslari va kasblari ro‘yxati ilova qilinadi.

Maktabgacha, umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlariga beriladigan davlat akkreditatsiyasidan o‘tganlik to‘g‘risidagi sertifikatga ro‘yxat ilova qilinmaydi.

**Sertifikat 5 yil muddatga beriladi.**

Sertifikat blankalari qat’iy hisobda turadigan hujjatlar hisoblanadi, hisobga olish seriyasiga, tartib raqamiga va himoyalanganlik darajasiga ega bo‘ladi.

Sertifikat blankalari namunalari Davlat inspeksiyasi tomonidan ishlab chiqiladi va uning buyurtmasiga ko‘ra «Davlat belgisi» davlat-ishlab chiqarish birlashmasida tayyorlanadi. Davlat inspeksiyasi boshlig‘i sertifikat blankalari hisobga olinishi, saqlanishi va ulardan maqsadli foydalanilishi uchun shaxsan javobgar hisoblanadi.

Ta’lim tashkiloti qayta tashkil etilgan (o‘zgartirish bundan mustasno) yoki tugatilgan taqdirda akkreditatsiya haqidagi sertifikat o‘z kuchini yo‘qotadi.

Akkreditatsiyadan o‘tgan ta’lim tashkiloti (ta’lim dasturlari) doimiy ravishda ta’lim sifatini ta’minlashlari shart va bu jarayon Davlat inspeksiyasi tomonidan muntazam nazorat qilib boriladi.

Akkreditatsiyadan o'tgan ta'lim tashkiloti (ta'lim dasturlari) tomonidan ta'limga oid qonunlar buzilganligi yoki amalga oshirilayotgan ta'lim xizmatlari davlat ta'lim standartlari va davlat talablariga mos kelmasligi yoki sertifikat va unga ilovada belgilangan ko'rsatkichlar doirasidan chetga chiqish holatlari aniqlangan taqdirda akkreditatsiya haqidagi sertifikat Davlat inspeksiyasi tomonidan belgilangan tartibda bekor qilinadi.

Akkreditatsiyadan o'tgan ta'lim tashkilotlari Davlat inspeksiyasida hisobga olinadi hamda uning rasmiy veb-saytida yoki ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi.

Ta'lim tashkilotlari yangi tashkil etilganda, qayta tashkil etilganda yoki tugatilganda manfaatdor vazirliklar va idoralar tomonidan, nodavlat ta'lim tashkilotlari tugatilganda muassislar tomonidan tegishli qaror nusxasi bir hafta muddatda Davlat inspeksiyasiga taqdim etilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlar bilan birgalikda tashkil etilgan ta'lim muassasalari, O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy davlatlar ta'lim muassasalarining alohida bo'linmalari (filiallari va fakultetlari) o'z davlatida tan olingan akkreditatsiyadan o'tkazuvchi tashkilotlar tomonidan akkreditatsiyadan o'tkazilganligi to'g'risidagi yoki unga tenglashtirilgan hujjatni asosiy ta'lim muassasasidan olgandan so'ng, uning nusxasini ikki hafta muddatda Davlat inspeksiyasiga taqdim etishi shart.

Davlat inspeksiyasi ushbu hujjatlar asosida akkreditatsiyadan o'tgan ta'lim tashkilotlari reestriga tegishli o'zgartirishlar kiritadi.

Attestatsiya va akkreditatsiya natijalaridan norozi bo'lgan ta'lim tashkilotlari rahbarlari yoki ularning muassislari belgilangan tartibda sudga murojaat qilishlari mumkin.

Ta'lim tashkilotlarini attestatsiyadan o'tkazish uchun mezonlar ishlab chiqiladi, manfaatdor vazirlik va idoralar bilan kelishilib, tasdiqlanib, Adliya vazirligidan davlat ro'yxatidan o'tkaziladi. Hozirgi kunda ushbu mezonlar ishlab chiqilgan va kelishuv jarayonida.

# 2-MAVZU: TALABALAR BILIMINI BAHOLASH TIZIMI. TA’LIM TIZIMIGA YUQORI SAMARALI XALQARO AMALIYOTNI JORIY ETISh. (2 soat)

**Reja:**

**1. Talabalar bilimini baholash tizimi.**

**2. Ta’lim sifatini oshirishda ichki nazorat va hisobdorlik mexanizmlari.**

**3. Yakuniy davlat attestatsiyasi. Davlat-jamoatchilik nazorati. Tashqi nazorat. Ta’lim sifatini oshirishda ichki nazorat va hisobdorlik mexanizmlari.**

**Tayanch tushunchalar:** *reyting tizimi, 5 baholik tizim, yakuniy davlat attestatsiyasi, ichki nazorat davlat-jamoatchilik nazorati, tashqi nazorat.*

## 1. Talabalar bilimini baholash tizimi.

Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to‘g‘risida nizom O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 9-son, 225-modda) va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida»gi (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 11-12-son, 295-modda) qonunlariga hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagi 343-son «Oliy ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi qaroriga (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2001 y., 15-16-son, 104-modda) muvofiq oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimini tartibga solishi belgilangan.

Qonun hujjatlariga muvofiq o‘quv jarayoni modul tizimiga asoslangan oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning o‘ziga xos xususiyatlari O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi bilan kelishilgan holda tegishli oliy ta’lim muassasasi tomonidan belgilanishi mumkin.

1. Talabalar bilimini nazorat qilish va reyting tizimi orqali baholashdan maqsad ta’lim sifatini boshqarish orqali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga erishish, talabalarning fanlarni o‘zlashtirishida bo‘shliqlar hosil bo‘lishini oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etishdan iborat.

2. Reyting tizimining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

a) talabalarda Davlat ta’lim standartlariga muvofiq tegishli bilim, ko‘nikma va malakalar shakllanganligi darajasini nazorat qilish va tahlil qilib borish;

b) talabalar bilimi, ko‘nikma va malakalarini baholashning asosiy tamoyillari: Davlat ta’lim standartlariga asoslanganlik, aniqlik, haqqoniylik, ishonchlilik va qulay shakldа baholashni ta’minlash;

v) fanlarning talabalar tomonidan tizimli tarzda va belgilangan muddatlarda o'zlashtirilishini tashkil etish va tahlil qilish;

g) talabalarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, axborot resurslari manbalaridan samarali foydalanishni tashkil etish;

d) talabalar bilimini xolis va adolatli baholash hamda uning natijalarini vaqtida ma'lum qilish;

ye) talabalarning fanlar bo'yicha kompleks hamda uzluksiz tayyorgarligini ta'minlash;

j) o'quv jarayonining tashkiliy ishlarini kompyuterlashtirishga sharoit yaratish.

3. Fanlar bo'yicha talabalar bilimini semestrda baholab borish reyting nazorati jadvallari va baholash mezonlari asosida amalga oshiriladi.

4. Nazorat turlari, uni o'tkazish tartibi va mezonlari kafedra mudiri tavsiyasi bilan oliy ta'lim muassasasining (fakultet) o'quv-uslubiy kengashida muhokama qilinadi va tasdiqlanadi hamda har bir fanning ishchi o'quv dasturida mashg'ulot turlari bilan birgalikda ko'rsatiladi.

5. Reyting nazorati jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek joriy va oraliq nazoratlarning saralash ballari haqidagi ma'lumotlar fan bo'yicha birinchi mashg'ulotda talabalarga e'lon qilinadi.

6. Talabalarning bilim saviyasi va o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlarini o'tkazish nazarda tutiladi:

**joriy nazorat** — talabaning fan mavzulari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda, seminar, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarida og'zaki so'rov, test o'tkazish, suhbat, nazorat ishi, kollokvium, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkazilishi mumkin;

**oraliq nazorat** — semestr davomida o'quv dasturining tegishli (fanning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan) bo'limi tugallangandan keyin talabaning bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazoratining soni (bir semestrda ikki martadan ko'p o'tkazilmasligi lozim) va shakli (yozma, og'zaki, test va hokazo) o'quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi;

**yakuniy nazorat** — semestr yakunida muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan «Yozma ish» (tibbiyot oliy ta'lim muassasalari uchun «Yozma ish» yoki OTKS (ob'ektiv tizimlashtirilgan klinik sinov) shaklida o'tkaziladi.

Ta’lim yo‘nalishi va mutaxassisliklari ayrim fanlarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda fakultet Ilmiy kengashi yoki oliy ta’lim muassasasi kengashi qarori asosida ko‘pi bilan 40% fanlardan yakuniy nazoratlar boshqa shakllarda (og‘zaki, test va hokazo) o‘tkazilishi mumkin.

$6^1$. Nazorat turlarini o‘tkazishda xolislikni ta’minlash maqsadida talabalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar ularning nazorat ishlariga oliy ta’lim muassasasi tomonidan identifikatsiya kodi berish orqali shifrlanishi mumkin.

7. Oraliq nazoratni o‘tkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida davriy ravishda o‘rganib boriladi va uni o‘tkazish tartiblari buzilgan hollarda, oraliq nazorat natijalari bekor qilinadi hamda oraliq nazorat qayta o‘tkaziladi.

8. Oliy ta’lim muassasasi rahbarining buyrug‘i bilan ichki nazorat va monitoring bo‘limi yoki o‘quv-uslubiy boshqarma rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida yakuniy nazoratni o‘tkazish jarayoni davriy ravishda o‘rganib boriladi va uni o‘tkazish tartiblari buzilgan hollarda, yakuniy nazorat natijalari bekor qilinadi hamda yakuniy nazorat qayta o‘tkaziladi.

10. Talabalarning bilim saviyasi, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida talabaning har bir fan bo‘yicha o‘zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi.

11. Har bir fan bo‘yicha talabaning semestr davomidagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 100 ballik tizimda butun sonlar bilan baholanadi.

Ushbu 100 ball nazorat turlari bo‘yicha quyidagicha taqsimlanadi:

yakuniy nazoratga — 30 ball;

joriy va oraliq nazoratlarga — 70 ball (fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda 70 ball kafedra tomonidan joriy va oraliq nazoratlarga taqsimlanadi).

Toshkent davlat yuridik universitetida reyting ballari nazorat turlari bo‘yicha quyidagicha taqsimlanadi:

joriy nazoratga — 30 ball;

oraliq nazoratga — 20 ball;

yakuniy nazoratga — 50 ball.

13. Talabaning reyting daftarchasi yoki talabalar reytingini hisobga olish elektron tizimiga alohida qayd qilinadigan kurs ishi (loyihasi, hisob-grafik ishlari), malakaviy amaliyot, fan (fanlararo) bo‘yicha yakuniy davlat attestatsiyasi, bitiruv malakaviy ishi va magistratura talabalarining ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik ishlari, magistrlik dissertatsiyasi bo‘yicha o‘zlashtirish darajasi — 100 ballik tizimda baholanadi.

14. Talabaning fan bo‘yicha o‘zlashtirish ko‘rsatkichini nazorat qilishda quyidagi namunaviy mezonlar (keyingi o‘rinlarda namunaviy mezonlar deb yuritiladi) tavsiya etiladi:

a) 86 — 100 ball uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

xulosa va qaror qabul qilish;

ijodiy fikrlay olish;

mustaqil mushohada yurita olish;

olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;

mohiyatini tushunish;

bilish, aytib berish;

tasavvurga ega bo'lish.

b) 71 — 85 ball uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

mustaqil mushohada yurita olish;

olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;

mohiyatini tushunish;

bilish, aytib berish;

tasavvurga ega bo'lish.

v) 55 — 70 ball uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

mohiyatini tushunish;

bilish, aytib berish;

tasavvurga ega bo'lish.

g) quyidagi hollarda talabaning bilim darajasi 0 — 54 ball bilan baholanishi mumkin:

aniq tasavvurga ega bo'lmaslik;

bilmaslik.

15. Namunaviy mezonlar asosida muayyan fandan joriy va oraliq nazoratlar bo'yicha aniq mezonlar ishlab chiqilib, kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadi va talabalarga e'lon qilinadi.

16. Namunaviy mezonlarga muvofiq mutaxassislik fanlar bo'yicha tayanch oliy ta'lim muassasalari tomonidan yakuniy nazorat uchun baholash mezonlari ishlab chiqilib, oliy ta'lim muassasasi Ilmiy-uslubiy kengashi tomonidan tasdiqlanadi va turdosh oliy ta'lim muassasalariga yetkaziladi.

17. Talabalarning o'quv fani bo'yicha mustaqil ishi joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar jarayonida tegishli topshiriqlarni bajarishi va unga ajratilgan ballardan kelib chiqqan holda baholanadi.

18. Talabaning fan bo'yicha bir semestrdagi reytingi quyidagicha aniqlanadi:

$$R_f = \frac{V \times O^I}{100}$$, bu yerda:

V — semestrda fanga ajratilgan umumiy o'quv yuklamasi (soatlarda);

$O^{I}$ — fan bo‘yicha o‘zlashtirish darajasi (ballarda).

19. Fan bo‘yicha joriy va oraliq nazoratlarga ajratilgan umumiy ballning 55 foizi saralash ball hisoblanib, ushbu foizdan kam ball to‘plagan talabalar yakuniy nazoratga kiritilmaydi.

Joriy va oraliq nazorat turlari bo‘yicha 55 va undan yuqori ballni to‘plagan talaba fanni o‘zlashtirgan deb hisoblanadi va ushbu fan bo‘yicha yakuniy nazoratga kirmasligiga yo‘l qo‘yiladi.

Tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida fan bo‘yicha joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarning har biriga ajratilgan ballning 55 foizi saralash ball etib belgilanadi va bunda joriy va oraliq nazoratlarning har biriga ajratilgan ballning 55 va undan yuqori foizidagi ballni to‘plagan talabalar ushbu fan bo‘yicha yakuniy nazoratga kiritiladi.

20. Talabaning semestr davomida fan bo‘yicha to‘plagan umumiy bali har bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq to‘plagan ballari yig‘indisiga teng.

21. Oraliq va yakuniy nazorat turlari kalendar tematik rejaga muvofiq dekanat yoki fakultet tuzilmasi bo‘lmagan oliy ta’lim muassasalarida o‘quv bo‘limi (o‘quv-uslubiy boshqarma) tomonidan tuzilgan reyting nazorat jadvallari asosida o‘tkaziladi. Yakuniy nazorat semestrning oxirgi 2 haftasi mobaynida o‘tkaziladi.

22. Talaba fan bo‘yicha kurs loyihasi (ishi)ni ushbu fan bo‘yicha to‘plagan ballari umumlashtirilishiga qadar topshirishi shart.

23. Joriy va oraliq nazoratlarda saralash balidan kam ball to‘plagan va uzrli sabablarga ko‘ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so‘nggi joriy va oraliq nazoratlar uchun yakuniy nazoratgacha bo‘lgan muddat beriladi.

Kasalligi sababli darslarga qatnashmagan hamda belgilangan muddatlarda joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarni topshira olmagan talabalarga fakultet dekani farmoyishi yoki fakultet tuzilmasi bo‘lmagan oliy ta’lim muassasalarida o‘quv bo‘limi (o‘quv-uslubiy boshqarma) yoki o‘quv ishlari bo‘yicha prorektorning ruxsatnomasi asosida, o‘qishni boshlaganidan so‘ng ikki hafta muddatda qayta topshirishga ruxsat beriladi.

24. Talabaning semestrda joriy va oraliq nazorat turlari bo‘yicha to‘plangan ballari ushbu nazorat turlari umumiy ballining 55 foizidan kam bo‘lsa yoki semestr yakunida joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlari bo‘yicha to‘plangan ballari yig‘indisi 55 balldan kam bo‘lsa, u akademik qarzdor deb hisoblanadi.

Tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida semestr yakunida fan bo‘yicha joriy, oraliq yoki yakuniy nazorat turlarining har biri bo‘yicha saralash ballidan kam ball to‘plagan talaba akademik qarzdor hisoblanadi.

Toshkent davlat yuridik universitetida talabaning semestrda joriy va oraliq nazorat turlari bo‘yicha to‘plagan ballari ushbu nazorat turlari umumiy balining 55

foizidan kam bo'lsa yoki yakuniy nazorat bo'yicha to'plagan bali ushbu nazorat turi umumiy balining 55 foizidan kam bo'lsa, u akademik qarzdor hisoblanadi.

Akademik qarzdor talabalarga semestr tugaganidan keyin (bahorgi semestr natijalari bo'yicha esa, talabalarning yozgi ta'tili hamda professor-o'qituvchilarning mehnat ta'tilidan so'ng) qayta o'zlashtirish uchun bir oy muddat beriladi. Shu muddat davomida fanni o'zlashtira olmagan talaba fakultet dekani yoki fakultet tuzilmasi bo'lmagan oliy ta'lim muassasalarida o'quv bo'limi (o'quv-uslubiy boshqarma) boshlig'ining tavsiyasiga ko'ra belgilangan tartibda rektorning buyrug'i bilan talabalar safidan chetlashtiriladi.

25. Talaba nazorat natijalaridan norozi bo'lsa, fan bo'yicha nazorat turi natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekani yoki fakultet tuzilmasi bo'lmagan oliy ta'lim muassasalarida o'quv bo'limi (o'quv-uslubiy boshqarma) boshlig'iga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekani yoki fakultet tuzilmasi bo'lmagan oliy ta'lim muassasalarida o'quv bo'limi (o'quv-uslubiy boshqarma) boshlig'ining taqdimnomasiga ko'ra rektor buyrug'i bilan 3 (uch) a'zodan kam bo'lmagan tarkibda apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

Apellyatsiya komissiyasi talabalarning arizalarini ko'rib chiqib, shu kunning o'zida xulosasini bildiradi.

26. Baholashning o'rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o'tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra mudiri, o'quv bo'limi hamda ichki nazorat va monitoring bo'limi tomonidan nazorat qilinadi.

27. Talabaning fan bo'yicha nazorat turlarida to'plagan ballari semestr yakunida reyting qaydnomasiga butun sonlar bilan qayd qilinadi. Reyting daftarchasi yoki talabalar reytingini hisobga olish elektron tizimining «O'quv rejasida ajratilgan soat» ustuniga semestr uchun fanga ajratilgan umumiy o'quv yuklama soatlari, «Fandan olingan baho» ustuniga esa 100 ballik tizimdagi o'zlashtirishi qo'yiladi.

Talabaning saralash balidan past bo'lgan o'zlashtirishi reyting daftarchasiga qayd etilmaydi.

28. Har bir fan bo'yicha o'tkaziladigan nazorat turlarining natijalari guruh jurnali hamda qaydnomada qayd etiladi va shu kunning o'zida (nazorat turi yozma ish shaklida o'tkazilgan bo'lsa, 2 (ikki) kun muddat ichida) talabalar e'tiboriga yetkaziladi.

29. Yakuniy nazorat natijalariga ko'ra fan o'qituvchisi talabalarning fan bo'yicha reytingini aniqlaydi hamda reyting daftarcha va qaydnomaning tegishli qismini to'ldiradi.

Talabalar reytingini hisobga olish elektron tizimi joriy etilgan oliy ta'lim muassasalarida talabalarning fan bo'yicha reytingi reyting qaydnomasi va ushbu

tizimga qayd etiladi.

30. Talabaning reytingi uning bilimi, koʻnikmasi va malakalari darajasini belgilaydi. Talabaning semestr (kurs) boʻyicha umumiy reytingi barcha fanlardan toʻplangan reyting ballari yigʻindisi orqali aniqlanadi.

31. Talabalar umumiy reytingi har bir semestr va oʻquv yili yakunlangandan soʻng e’lon qilinadi.

32. Diplom ilovasi yoki akademik ma’lumotnomani dekanat yoki fakultet tuzilmasi boʻlmagan oliy ta’lim muassasalarida oʻquv boʻlimi (oʻquv-uslubiy boshqarma) tomonidan rasmiylashtirishda fan bir necha semestr davom etgan boʻlsa, reytinglar yigʻindisi olinadi.

Talabaga imtiyozli diplom belgilashda uning har bir semestr yakunidagi fanlar boʻyicha oʻzlashtirish koʻrsatkichi hisobga olinadi.

33. Talabalarning nazorat turlari boʻyicha erishgan natijalari kafedralar, dekanatlar va oʻquv-metodik boʻlinmalarda kompyuter xotirasiga kiritilib, muntazam ravishda tahlil qilib boriladi.

34. Joriy, oraliq va yakuniy nazorat natijalari kafedra yigʻilishlari, fakultet va oliy ta’lim muassasasi Ilmiy kengashlarida muntazam ravishda muhokama etib boriladi va tegishli qarorlar qabul qilinadi.

35. Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus ta’lim vazirligi hamda Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat inspeksiyasi test baholari va reyting ballarining xolisligini tekshirishni tashkil etadi va nazorat qiladi.

36. Ushbu Nizomda belgilangan masalalar boʻyicha kelib chiqqan nizolar qonun hujjatlari asosida hal qilinadi.

Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimini takomillashtirish boʻyicha takliflar.

1. Hozirgi koʻrinishdagi talabalar bilimini baholashning reyting tizimi “reyting” tushunchasiga unchalik mos kelmaydi. Sababi, futbol komandalari va boshqa sport turlari boʻyicha sportchilarning reytingi oʻrganilganda, reyting ma’lum bir koʻrsatkich boʻlib u ballarda ifodalanadi va vaqt oʻtishi bilan u pasayishi yoki koʻtarilishi mumkin. Talabalarning reytingi esa semestr boshida 0 boʻlib semestr oxiriga borib 100 gacha koʻtarilishi mumkin, keyingi semestr yana 0 dan boshlanadi. Bu aslida reyting emas balki talabalar bilimini 100 ballik tizimda baholash deb tushunilsa maqsadga muvofiq boʻladi.

2. Agar uni reyting tizimi deb baholaydigan boʻlsak, unda har bir oʻtkazilgan nazorat 100 ballik tizimda baholanishi va nazorat ballari bir-biriga qoʻshilib, umumiy nazoratlar soniga boʻlib chiqarilsa, unda birinchi nazoratdayoq talabaning 60, 70 va hakoza boʻlishi mumkin va keyingi nazoratlar boʻyicha uning reyting bali koʻtarilayotgani yoki tushayotganligi haqida xulosa qilish

mumkin bo‘ladi.

**2. Ta’lim tizimiga yuqori samarali xalqaro amaliyotni joriy etish.**

**Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi.**

Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-son «Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qaroriga muvofiq oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimini belgilaydi. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2018 yil 26 sentabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3069.

1. Mazkur Nizom 2018-2019 o‘quv yilida, shuningdek keyingi o‘quv yillarida oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilingan talabalarning bilimini nazorat qilish hamda baholashda qo‘llaniladi.

2. Mazkur Nizom talablari qonun hujjatlariga muvofiq o‘quv jarayoni modul tizimiga asoslangan oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashda qo‘llanilmaydi.

3. Talabalar oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari tomonidan birinchi mashg‘ulotda mazkur Nizom talablari bilan tanishtirilishi shart.

4. Talabalar bilimini baholashda malakaviy amaliyot, kurs ishi, fan (fanlararo) davlat attestatsiyasi, bitiruv malakaviy ishi, shuningdek magistratura bosqichida ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik ishlar hamda magistrlik dissertatsiyasi bo‘yicha mazkur Nizomda belgilangan baholash mezonlari qo‘llaniladi.

**Nazorat turlari va baholash mezonlari.**

**Nazorat turlari.**

5. Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish oraliq va yakuniy nazorat turlarini o‘tkazish orqali amalga oshiriladi.

6. Oraliq nazorat semestr davomida ishchi fan dasturining tegishli bo‘limi tugagandan keyin talabaning bilim va amaliy ko‘nikmalarini baholash maqsadida o‘quv mashg‘ulotlari davomida o‘tkaziladi.

7. Oraliq nazorat turi har bir fan bo‘yicha fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda 2 martagacha o‘tkazilishi mumkin.

Oraliq nazorat turini o‘tkazish shakli va muddati fanning xususiyati va fanga ajratilgan soatlardan kelib chiqib tegishli kafedra tomonidan belgilanadi.

8. Oraliq nazorat turining topshiriqlari tegishli kafedra professor-o‘qituvchilari tomonidan ishlab chiqiladi va mazkur kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadi.

9. Semestr davomida haftasiga 2 akademik soatdan (tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida 4 akademik soatdan) kam bo‘lgan fanlar bo‘yicha oraliq nazorat turi o‘tkazilmaydi.

10. Talabaning amaliy, seminar, laboratoriya mashg‘ulotlari va mustaqil ta’lim topshiriqlarini bajarishi, shuningdek uning ushbu mashg‘ulotlardagi faolligi fan o‘qituvchisi tomonidan baholab boriladi. Baholash mazkur Nizomning 15-bandida nazarda tutilgan mezonlar asosida amalga oshiriladi.

Talabani oraliq nazorat turi bo‘yicha baholashda, uning o‘quv mashg‘ulotlari davomida olgan baholari inobatga olinadi.

11. Yakuniy nazorat turi semestr yakunida (tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida fan yakunida) tegishli fan bo‘yicha talabaning nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarini o‘zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi.

12. Yakuniy nazorat turini o‘tkazish shakli tegishli fan bo‘yicha kafedra tomonidan belgilanadi.

13. Yakuniy nazorat turi oliy ta’lim muassasasining tegishli fakultet dekani yoki o‘quv-uslubiy bo‘lim tomonidan ishlab chiqiladigan hamda o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor tomonidan tasdiqlanadigan Yakuniy nazorat turlarini o‘tkazish jadvaliga muvofiq o‘tkaziladi.

14. Tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida oraliq va yakuniy nazorat turlari ob’ektiv tizimlashtirilgan klinik sinov yoki ob’ektiv tizimlashtirilgan imtihon shakllarida o‘tkazilishi mumkin.

**Talabalar bilimini baholash mezonlari.**

15. Talabalarning bilimi quyidagi mezonlar asosida:

talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo‘llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda — 5 (a’lo) baho;

talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo‘llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda — 4 (yaxshi) baho;

talaba olgan bilimini amalda qo‘llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda — 3 (qoniqarli) baho;

talaba fan dasturini o‘zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega emas deb topilganda — 2 (qoniqarsiz) baho bilan baholanadi.

16. Nazorat turlarini o‘tkazish bo‘yicha tuzilgan topshiriqlarning mazmuni talabaning o‘zlashtirishini xolis (ob’ektiv) va aniq baholash imkoniyatini berishi

shart.

**Talabalar bilimini baholash.**

17. Talabalar bilimini baholash 5 baholik tizimda amalga oshiriladi.

18. Oraliq nazorat turini o'tkazish va mazkur nazorat turi bo'yicha talabaning bilimini baholash tegishli fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini olib borgan professor-o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Yakuniy nazorat turini o'tkazish va mazkur nazorat turi bo'yicha talabaning bilimini baholash o'quv mashg'ulotlarini olib bormagan professor-o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Tegishli fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini olib borgan professor-o'qituvchi yakuniy nazorat turini o'tkazishda ishtirok etishi taqiqlanadi.

Yakuniy nazorat turini o'tkazishda kelishuv asosida boshqa oliy ta'lim muassasalarining tegishli fan bo'yicha professor-o'qituvchilari jalb qilinishi mumkin.

19. Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida oraliq va yakuniy nazorat turlarini o'tkazish, shuningdek talabalarning bilimini baholash tegishli kafedra mudiri tomonidan tashkil etiladigan komissiya tomonidan amalga oshiriladi.

Komissiya tarkibi tegishli fan professor-o'qituvchilari va soha mutaxassislari orasidan shakllantiriladi.

Komissiya tarkibiga kelishuv asosida boshqa tashkilotlarning soha mutaxassislari ham jalb qilinishi mumkin.

20. Oliy ta'lim muassasasida nazorat turlarini o'tkazilishi tegishli oliy ta'lim muassasasining ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi tomonidan doimiy ravishda o'rganib boriladi. Bunda nazorat turlarini o'tkazilish tartibi buzilganligi aniqlangan hollarda, o'tkazilgan nazorat turlarining natijalari bekor qilinishi hamda tegishli nazorat turi qaytadan o'tkazilishi mumkin.

21. Talaba tegishli fan bo'yicha yakuniy nazorat turi o'tkaziladigan muddatga qadar oraliq nazorat turini topshirgan bo'lishlari shart.

22. Oraliq nazorat turini topshirmagan, shuningdek ushbu nazorat turi bo'yicha «2» (qoniqarsiz) baho bilan baholangan talaba yakuniy nazorat turiga kiritilmaydi.

Yakuniy nazorat turiga kirmagan yoki kiritilmagan, shuningdek ushbu nazorat turi bo'yicha «2» (qoniqarsiz) baho bilan baholangan talaba akademik qarzdor hisoblanadi.

23. Talaba uzrli sabablarga ko'ra oraliq va (yoki) yakuniy nazorat turiga kirmagan taqdirda ushbu talabaga tegishli nazorat turini qayta topshirishga fakultet dekanining farmoyishi asosida ruxsat beriladi.

24. Bir kunda 1 tadan ortiq fan bo'yicha yakuniy nazorat turi o'tkazilishiga

yo‘l qo‘yilmaydi. Yakuniy nazorat turlarini o‘tkazish kamida 2 kun oralig‘ida belgilanishi lozim.

25. Bitiruvchi kurs bo‘lmagan talabalar kuzgi semestr natijalari bo‘yicha 3 tagacha fandan (fanlardan) akademik qarzdorligi bo‘lgan hollarda talabaga bir oygacha, bahorgi semestr natijalari bo‘yicha 3 tagacha fandan (fanlardan) akademik qarzdorligi bo‘lgan talabaga tegishli fan (fanlar) bo‘yicha oraliq va (yoki) yakuniy nazorat turlarini yangi o‘quv yili boshidan qayta topshirish uchun 1 oy muddat beriladi.

Bitiruvchi kurs talabalariga bahorgi semestr natijalari bo‘yicha o‘zlashtirmagan fandan (fanlardan) qayta topshirish uchun yakuniy davlat attestatsiyasi boshlangunga qadar ruxsat beriladi.

Fanlardan akademik qarzdorligi 4 ta va undan ko‘p bo‘lgan talabalarga qayta topshirishga ruxsat berilmaydi va ular oliy ta’lim muassasasi rektorining (boshlig‘ining, filial direktorining) buyrug‘i bilan kursdan qoldiriladi.

26. Talabaga oraliq va (yoki) yakuniy nazorat turini qayta topshirish uchun berilgan muddat davomida talaba tomonidan qayta topshirishlar soni 2 martadan ko‘p bo‘lmasligi kerak.

Talaba oraliq va (yoki) yakuniy nazorat turini birinchi marta qayta topshirishdan o‘ta olmagan taqdirda, fakultet dekani tomonidan komissiya tuziladi. Komissiya tarkibi tegishli fan bo‘yicha professor-o‘qituvchi va soha mutaxassislari orasidan shakllantiriladi.

Ikkinchi marta oraliq va (yoki) yakuniy nazorat turini o‘tkazish va talabani baholash mazkur komissiya tomonidan amalga oshiriladi.

27. Berilgan muddat davomida mavjud bo‘lgan qarzdorlikni topshira olmagan talaba bo‘yicha fakultet dekani bildirgi bilan oliy ta’lim muassasasi rektorini (boshlig‘ini, filial direktorini) xabardor qiladi va ushbu talaba rektor (boshliq, filial direktori) buyrug‘i asosida kursdan qoldiriladi.

28. Talaba uzrli sabablarsiz malakaviy amaliyotga qatnashmagan, shuningdek malakaviy amaliyot yakunlari bo‘yicha «2» (qoniqarsiz) baho bilan baholangan hollarda, u akademik qarzdor hisoblanadi va kursdan qoldiriladi.

29. Kursda qoldirilgan talaba fanni (fanlarni) o‘zlashtirmagan semestr boshidan to‘lov-kontrakt asosida mazkur o‘quv yilining tegishli semestri uchun tasdiqlangan o‘quv rejaga muvofiq o‘qishni davom ettiradi.

30. Baholash natijasidan norozi bo‘lgan talabalar fakultet dekani tomonidan tashkil etiladigan Apellyatsiya komissiyasiga apellyatsiya berish huquqiga ega.

31. Apellyatsiya komissiyasi tarkibiga talabani baholashda ishtirok etmagan tegishli fan professor-o‘qituvchilari orasidan komissiya raisi va kamida to‘rt nafar a’zo kiritiladi.

32. Talaba baholash natijasidan norozi bo‘lgan taqdirda, baholash natijasi

e'lon qilingan vaqtdan boshlab 24 soat davomida apellyatsiya berishi mumkin. Talaba tomonidan berilgan apellyatsiya Apellyatsiya komissiyasi tomonidan 2 kun ichida ko'rib chiqilishi lozim.

33. Talabaning apellyatsiyasini ko'rib chiqishda talaba ishtirok etish huquqiga ega.

34. Apellyatsiya komissiyasi talabaning apellyatsiyasini ko'rib chiqib, uning natijasi bo'yicha tegishli qaror qabul qiladi. Qarorda talabaning tegishli fanni o'zlashtirgani yoki o'zlashtira olmagani ko'rsatiladi.

Apellyatsiya komissiyasi tegishli qarorni fakultet dekani va talabaga yetkazilishini ta'minlaydi.

**Baholash natijalarini qayd qilish.**

35. Talabalar bilimini baholash tegishli fan bo'yicha professor-o'qituvchi tomonidan Talabalarning fanlarni o'zlashtirishini hisobga olish jurnalida (bundan buyon matnda Jurnal deb yuritiladi) qayd etib boriladi. Professor-o'qituvchi qo'shimcha ravishda talabalar bilimini baholashni elektron tizimda ham yuritishi mumkin.

Professor-o'qituvchi Jurnalda talabaga qo'yilgan baholarni shu kunning o'zida qayd etib boradi. Agar talabaning bilimini baholash yozma ish shaklida o'tkazilgan bo'lsa, bunda professor-o'qituvchi talabalarning natijalarini 3 kundan ko'p bo'lmagan muddatda Jurnalga qayd etishi lozim.

36. Nazorat turi bo'yicha talabaning bilimi «3» (qoniqarli) yoki «4» (yaxshi) yoxud «5» (a'lo) baho bilan baholanganda, nazorat turini qayta topshirishga yo'l qo'yilmaydi.

37. Talaba nazorat turi o'tkazilgan vaqtda uzrli sabablarsiz qatnashmagan hollarda Jurnalga «0» belgisi yozib qo'yiladi.

38. Jurnal tegishli fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini olib borgan professor-o'qituvchi, kafedra mudiri va fakultet dekani tomonidan imzolanadi hamda fakultet dekanatida saqlanadi. Jurnalning saqlanishi uchun fakultet dekani mas'ul hisoblanadi.

39. Talabalarning yakuniy nazorat turi bo'yicha baholari Jurnalga qayd etilganda, shu kunning o'zida talabaning Baholash daftariga ham yozib qo'yilishi kerak.

40. Yakuniy nazorat turi bo'yicha talabaning bilimi «2» (qoniqarsiz) baho bilan baholangan yoki Jurnalga «0» belgisi yozib qo'yilgan hollarda ushbu baho yoki belgi talabaning Baholash daftariga yozilmaydi.

41. Jurnalning o'z vaqtida, to'g'ri va to'liq yuritilishi, shuningdek undagi baho va boshqa ma'lumotlarga asossiz o'zgartirishlar kiritilmasligi uchun fakultet dekani va tegishli fan bo'yicha professor-o'qituvchi mas'ul hisoblanadi.

42. Tegishli o‘quv yili yakuni bo‘yicha ishchi o‘quv rejadagi fanlar bo‘yicha «3» (qoniqarli) yoki «4» (yaxshi) yoxud «5» (a’lo) baho bilan baholangan talaba oliy ta’lim muassasasi rektorining (boshlig‘ining, filial direktorining) buyrug‘iga asosan keyingi kursga o‘tkaziladi.

43. Baholash natijalari kafedra yig‘ilishlari, fakultet va oliy ta’lim muassasasi Kengashlarida muntazam ravishda muhokama etib boriladi va tegishli qarorlar qabul qilinadi.

44. O‘zbekiston Respublikasining oliy ta’lim muassasalarida talabalar o‘zlashtirishini baholash tizimini 5 baho yoki 100 ballik tizim va ilg‘or xorijiy davlatlar oliy ta’lim tizimida qo‘llaniladigan baholash tizimiga qiyosiy taqqoslash hamda ularga o‘tkazish mazkur Nizomning ilovasiga muvofiq jadvallar asosida amalga oshiriladi.

**Baholashni 5 baholik shkaladan 100 ballik shkalaga o‘tkazish JADVALI**

| 5 baholik shkala | 100 ballik shkala | | 5 baholik shkala | 100 ballik shkala | | 5 baholik shkala | 100 ballik shkala |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 5,00 — 4,96 | 100 | | 4,30 — 4,26 | 86 | | 3,60 — 3,56 | 72 |
| 4,95 — 4,91 | 99 | | 4,25 — 4,21 | 85 | | 3,55 — 3,51 | 71 |
| 4,90 — 4,86 | 98 | | 4,20 — 4,16 | 84 | | 3,50 — 3,46 | 70 |
| 4,85 — 4,81 | 97 | | 4,15 — 4,11 | 83 | | 3,45 — 3,41 | 69 |
| 4,80 — 4,76 | 96 | | 4,10 — 4,06 | 82 | | 3,40 — 3,36 | 68 |
| 4,75 — 4,71 | 95 | | 4,05 — 4,01 | 81 | | 3,35 — 3,31 | 67 |
| 4,70 — 4,66 | 94 | | 4,00 — 3,96 | 80 | | 3,30 — 3,26 | 66 |
| 4,65 — 4,61 | 93 | | 3,95 — 3,91 | 79 | | 3,25 — 3,21 | 65 |
| 4,60 — 4,56 | 92 | | 3,90 — 3,86 | 78 | | 3,20 — 3,16 | 64 |
| 4,55 — 4,51 | 91 | | 3,85 — 3,81 | 77 | | 3,15 — 3,11 | 63 |
| 4,50 — 4,46 | 90 | | 3,80 — 3,76 | 76 | | 3,10 — 3,06 | 62 |
| 4,45 — 4,41 | 89 | | 3,75 — 3,71 | 75 | | 3,05 — 3,01 | 61 |
| 4,40 — 4,36 | 88 | | 3,70 — 3,66 | 74 | | 3,00 | 60 |
| 4,35 — 4,31 | 87 | | 3,65 — 3,61 | 73 | | **3,0 dan kam** | **60 dan kam** |

**Oliy ta'limda talabalar o'zlashtirishini baholash tizimlarini qiyosiy taqqoslash JADVALI**

<table>
<tr><th>Taklif etilayotgan O'zbekiston tizimi</th><th>Rossiya tizimi (MDU)*</th><th>Yevropa kredit transfer tizimi (ECTS — European Credit Transfer System)</th><th>Amerika tizimi (A- F)</th><th>Britaniya tizimi (%)</th><th>Yaponiya tizimi (%)</th><th>Koreya tizimi (%)</th><th>O'zbekiston tizimi (%)</th></tr>
<tr><td rowspan="3">«5»</td><td rowspan="3">«5»</td><td rowspan="3">«A»</td><td>«A+»</td><td rowspan="2">70 — 100</td><td rowspan="3">80 — 100</td><td rowspan="3">90 — 100</td><td rowspan="3">90 — 100</td></tr>
<tr><td>«A»</td></tr>
<tr><td>«A-»</td><td>65 — 69</td></tr>
<tr><td rowspan="3">«4»</td><td rowspan="3">«4»</td><td>«B»</td><td>«B+»</td><td>60 — 64</td><td rowspan="3">70 — 79</td><td rowspan="3">80 — 89</td><td rowspan="3">70 — 89,9</td></tr>
<tr><td rowspan="2">«C»</td><td>«B»</td><td rowspan="2">50 — 59</td></tr>
<tr><td>«B-»</td></tr>
<tr><td rowspan="6">«3»</td><td rowspan="6">«3»</td><td>«D»</td><td>«C+»</td><td>45 — 49</td><td rowspan="6">60 — 69</td><td rowspan="3">70 — 79</td><td rowspan="6">60 — 69,9</td></tr>
<tr><td rowspan="5">«E»</td><td>«C»</td><td rowspan="5">40 — 44</td></tr>
<tr><td>«C-»</td></tr>
<tr><td>«D+»</td><td rowspan="3">60 — 69</td></tr>
<tr><td>«D»</td></tr>
<tr><td>«D-»</td></tr>
<tr><td rowspan="2">«2»</td><td rowspan="2">«2»</td><td>«FX»</td><td rowspan="2">«F»</td><td rowspan="2">0 — 39</td><td rowspan="2">0 — 59</td><td rowspan="2">0 — 59</td><td rowspan="2">0 — 59,9</td></tr>
<tr><td>«F»</td></tr>
</table>

## 3. Yakuniy davlat attestatsiyasi. Davlat-jamoatchilik nazorati. Tashqi nazorat. Ta'lim sifatini oshirishda ichki nazorat va hisobdorlik mexanizmlari.

**Yakuniy davlat attestatsiyasi:**

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2009 yil 5 iyunda ro'yxatdan o'tkazilgan (ro'yxat raqami 1963]) Nizom bilan tartibga solingan.

1. Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari o'quv jarayoni jadvaliga muvofiq o'tkaziladi.

2. Yakuniy davlat attestatsiyasi oliy ta'lim muassasasidagi har bir ta'lim yo'nalishi (mutaxassisligi) bo'yicha tashkil etiladigan yakuniy davlat attestatsiya komissiyalari tomonidan amalga oshiriladi.

3. Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

bitiruvchining bilim, malaka va ko'nikma darajasining davlat ta'lim standartlari talablariga muvofiq kelishini kompleks baholash;

yakuniy davlat attestatsiyasi natijalari bo'yicha bitiruvchilarga bakalavr (magistr) akademik darajasini berish masalasini hal qilish;

komissiya faoliyati natijalarini tahlil qilish va ular asosida oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlashni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

4. Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalari o‘z faoliyatlarini mazkur Nizom hamda bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasi va ta’lim mazmuniga qo‘yilgan Davlat ta’lim standartlari talablarini bajarishga yo‘naltirilgan boshqa hujjatlarga tayangan holda olib boradilar.

5. Yakuniy davlat attestatsiyasi ta’lim yo‘nalishi (mutaxassisligi) o‘quv rejalariga muvofiq quyidagi turlardagi attestatsiya sinovlaridan iborat:

xorijiy til bo‘yicha yakuniy davlat attestatsiya sinovi (oliy ta’lim muassasasi Kengashi qaroriga asosan o‘tkazilishi mumkin);

ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha fanlararo (umumkasbiy va ixtisoslik) yakuniy davlat attestatsiya sinovi;

diplom loyihasi himoyasi;

bitiruv malakaviy ish (magistrlik dissertatsiyasi) himoyasi.

6. Xorijiy til bo‘yicha yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi mazkur fanning davlat ta’lim standartida belgilangan zaruriy mazmunidan kelib chiqqan holda o‘quv dasturida nazarda tutilgan materiallarni talaba tomonidan o‘zlashtirilganlik darajasini aniqlashga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak.

7. Ta’lim yo‘nalishi (mutaxassisligi) bo‘yicha fanlararo yakuniy davlat attestatsiya sinovi fanlar mazmuniga qo‘yiladigan talablar bilan bir qatorda, talaba tayyorgarligining mazkur ta’lim yo‘nalishi (mutaxassislik) bo‘yicha malaka talablarida bitiruvchiga nisbatan nazarda tutilgan umumiy talablarga ham javob bera olish darajasini aniqlashga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak.

8. Yakuniy davlat attestatsiyasini ixtisoslik fanlaridan (fanlararo) yakuniy davlat attestatsiya sinovi yoki diplom loyihasi himoyasi yoxud bitiruv malakaviy ishi (magistrlik dissertatsiyasi) himoyasi shaklida o‘tkazilishi bitiruvchilarning iqtidori, xohishi va ta’lim xususiyatidan kelib chiqqan holda oliy ta’lim muassasasi Kengashi qarori bilan belgilanadi.

Yakuniy davlat attestatsiyasiga oliy ta’lim muassasasi Kengashi qaroriga asosan xorijiy til bo‘yicha yakuniy davlat attestatsiya sinovi qo‘shimcha sifatida kiritilishi mumkin.

Oliy ta’lim muassasasi Kengashining qarori bilan bitiruvchi uchun belgilangan yakuniy davlat attestatsiyasining shakli bir o‘quv yili davomida o‘zgartirilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari o‘quv jarayoni jadvalida ko‘rsatilgan muddatlarda fakultet dekani yoki o‘quv-uslubiy bo‘lim (boshqarma) tomonidan tayyorlangan, oliy ta’lim muassasasi o‘quv ishlari bo‘yicha prorektori tomonidan tasdiqlangan Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari jadvali asosida o‘tkaziladi.

9. Oliy ta’lim muassasalari tomonidan yetakchi professor-o‘qituvchilarni jalb etgan holda yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlarining dasturlari hamda baholash

mezonlari ishlab chiqiladi hamda tayanch oliy ta’lim muassasasi bilan kelishgan holda oliy ta’lim muassasasi Kengashi tomonidan tasdiqlanadi va talabalar e’tiboriga yetkaziladi.

10. Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalari raisligiga nomzodlar oliy ta’lim muassasalari tomonidan tegishli vazirlik va idoralar bilan kelishilib, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligiga tasdiqlash uchun taqdim etiladi.

11. Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasi raislari oliy ta’lim muassasasining idoraviy mansubligidan qat’iy nazar, ushbu ta’lim muassasasida ishlamayotgan olimlar, ishlab chiqarishning yetakchi mutaxassislaridan O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan bir yil (kalendar yil) muddatga tasdiqlanadi.

Bir kishi ketma-ket bir oliy ta’lim muassasasida tegishli yo‘nalish (mutaxassislik) bo‘yicha ikki martadan ortiq yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasining raisi bo‘lishi mumkin emas.

12. Oliy ta’lim muassasasida Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan raislar rahbarligida oliy ta’lim muassasasi rektori (filial direktori) buyrug‘i bilan xorijiy til bo‘yicha yakuniy davlat attestatsiya sinovi (oliy ta’lim muassasasi Kengashi qaroriga asosan) va (yoki) ta’lim yo‘nalishi (mutaxassislik) bo‘yicha fanlararo yakuniy davlat attestatsiya sinovi va diplom loyihasi yoki bitiruv malakaviy ish (magistrlik dissertatsiyasi) himoyasi yoki ixtisoslik fanlaridan yakuniy davlat attestatsiya sinovini o‘tkazish bo‘yicha yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalari tarkibi shakllantiriladi.

13. Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalari tarkibi mutaxassis tayyorlovchi oliy ta’lim muassasasining ilmiy-pedagogik kadrlari (attestatsiya komissiyasi umumiy tarkibining 50 foizigacha), shuningdek mazkur soha kadrlarining iste’molchilari bo‘lgan korxona, tashkilot va muassasalarning yuqori malakali mutaxassislari, turdosh oliy ta’lim muassasalarining yetakchi professor-o‘qituvchi va ilmiy xodimlari, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tizimidagi tegishli soha olimlaridan iborat bo‘ladi.

14. Yakuniy davlat attestatsiya komissiyalari tarkibi kamida 5 nafar professor-o‘qituvchi va mutaxassislardan shakllantiriladi. Yakuniy davlat attestatsiyasida vasiylik kengashi, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va ota-onalar vakillari jamoatchilik asosida kuzatuvchi sifatida qatnashishi mumkin.

15. Yakuniy davlat attestatsiya sinovlari bo‘yicha yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalarining tarkibi oliy ta’lim muassasasi rektori (filial direktori) tomonidan bitiruv semestri boshlanishidan bir oy oldin tasdiqlanadi.

Zaruriyat bo‘lganda attestatsiya sinovlarining biri bo‘yicha bitta rais rahbarligida bir nechta yakuniy davlat attestatsiya komissiyalari tuzilishi mumkin.

Yakuniy davlat attestatsiyasi jarayonida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish Davlat inspeksiyasi vakillari ishtirok etishlari mumkin.

Oliy ta’lim muassasalarining davlat attestatsiyasidan o‘tmagan yo‘nalish va mutaxassislik bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi ushbu oliy ta’lim muassasasining yuqori turuvchi vazirlik (idora) tomonidan tashkil etiladigan davlat attestatsiya komissiyasi tomonidan o‘tkaziladi.

16. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari boshlanishidan oldin yakuniy davlat attestatsiya komissiyasi raislari bilan oliy ta’lim muassasasi rektori (filial direktori) shaxsan yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalarining tayyorgarlik darajasi, komissiya raislari va a’zolarining vazifalari, bitiruvchilarga qo‘yilayotgan talablar, tartib-intizom to‘g‘risida yig‘ilish o‘tkazadi.

17. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari yozma, test yoki og‘zaki usulda tashkil etiladi va ushbu tartib oliy ta’lim muassasasi Kengashi qarori asosida ta’lim muassasasi rektori (filial direktori) tomonidan belgilanadi hamda yakuniy davlat attestatsiyasi boshlanishidan olti oy oldin talabalar e’tiboriga yetkaziladi. Talabalar sinov o‘tkaziladigan fanlar dasturlari bilan ta’minlanadilar, ularga tayyorgarlik ko‘rish va maslahatlar berish uchun zarur sharoitlar yaratiladi.

18. Yakuniy davlat attestatsiyasiga tegishli o‘quv reja va fan dasturlarini to‘liq tugatgan va o‘quv rejasida nazarda tutilgan barcha sinovlardan muvaffaqiyatli o‘tgan talabalar qo‘yiladi.

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilari tegishli ta’lim dasturlarini to‘liq o‘zlashtirgandan keyin yakuniy davlat attestatsiyasidan o‘tishlari majburiydir.

19. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari va diplom loyihasi yoki bitiruv malakaviy ish (magistrlik dissertatsiyasi) himoyasi yoxud ixtisoslik fanlaridan yakuniy davlat attestatsiya sinovi yakuniy davlat attestatsiya komissiyalarining ochiq majlislarida, a’zolarning kamida uchdan ikki qismi ishtirok etgan holda, rais ishtirok etmagan taqdirda rais o‘rinbosari raisligida o‘tkaziladi.

Diplom loyihasi yoki bitiruv malakaviy ish (magistrlik dissertatsiyasi) himoyasi yoxud ixtisoslik fanlaridan yakuniy davlat attestatsiya sinovi ishlab chiqarish bazasida tashkil etilgan kafedra filiallarida sohaning yetakchi mutaxassislarini jalb etgan holda o‘tkazilishi mumkin.

Yakuniy davlat attestatsiyasiga kiritilgan barcha turdagi attestatsiya sinovlari bo‘yicha o‘zlashtirish ko‘rsatkichi talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimiga muvofiq aniqlanadi hamda yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasining majlis bayoni rasmiylashtirilgandan so‘ng shu kunning o‘zida e’lon qilinadi.

Yakuniy davlat attestatsiyasiga kiritilgan barcha turdagi attestatsiya sinovlarida mualliflikni o‘zlashtirishga (plagiatga) yo‘l qo‘yilmaydi. Bunday holat

aniqlanganda davlat attestatsiya komissiyasi tomonidan bitiruvchiga tegishli attestatsiya sinovidan qoniqarsiz baho qo'yiladi yoki qo'yilgan ijobiy baho bekor qilinadi.

20. Yakuniy davlat attestatsiya komissiyasi bitiruvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari natijalari asosida ularga ta'lim yo'nalishi (mutaxassisligi) bo'yicha bakalavr (magistr) darajasi berish haqida qaror qabul qiladi.

Yakuniy davlat attestatsiya komissiyalarining qarorlari ochiq ovoz berish yo'li bilan, majlisda ishtirok etuvchilarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lgan holda, raisning ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

21. Oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisi yakuniy davlat attestatsiyasi tarkibiga kiritilgan yakuniy davlat attestatsiya sinovidan muvaffaqiyatli o'tgandan so'ng unga muvofiq darajadagi oliy ma'lumot to'g'risidagi diplom va uning ilovasi beriladi.

22. Fanlar dasturlarini o'zlashtirishda katta yutuqlarga erishgan va o'quv rejasidagi barcha fanlarning kamida 3/4 qismi bo'yicha 86 ball va undan yuqori (5 baholik tizimda 5 baho (a'lo) o'zlashtirish ko'rsatkichlariga erishgan, (boshqa fanlar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi 71 balldan (5 baholik tizimda o'zlashtirish ko'rsatkichi 4 bahodan (yaxshi) kam bo'lmagan), shuningdek, yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari bo'yicha kamida 86 ball (5 baholik tizimda 5 baho (a'lo) o'zlashtirish ko'rsatkichlariga ega bo'lgan bakalavriat bitiruvchisiga «imtiyozli» diplom beriladi.

23. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovidan o'ta olmagan shaxs o'qish muddati tugagandan so'ng, arizasiga muvofiq yakuniy davlat attestatsiyasi sinovini keyingi yillarda qayta topshirish huquqiga ega. Bunda oliy ta'lim muassasasi rektori (filial direktori) shaxsni yakuniy davlat attestatsiyasi sinovini qayta topshirishga qo'yish bo'yicha buyruq chiqarishi lozim.

24. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovidan qayta o'ta olmagan talabaga akademik ma'lumotnoma beriladi va u o'rnatilgan tartibda, to'lov-kontrakt asosida tegishli kursga o'qish uchun qayta tiklanishi mumkin.

26. Uzrli sabab bilan yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlariga kelmagan talabalar rektorning buyrug'i bilan yakuniy davlat attestatsiya komissiyasining ishi yakunlanishiga qadar boshqa muddatlarda o'tkaziladigan yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlariga kiritilishi mumkin.

27. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlarida olgan bahosiga e'tiroz bildirgan bitiruvchilarning arizalarini ko'rib chiqish uchun rektor buyrug'i bilan apellyatsiya komissiyasi tuziladi.

28. Yakuniy davlat attestatsiyasi jarayonida qo'yilgan bahodan norozi bo'lgan bitiruvchilar yakuniy davlat attestatsiyasi baholari e'lon qilingan kundan e'tiboran uch kun muddat ichida apellyatsiya komissiyasiga murojaat qilish huquqiga

egadirlar.

29. Apellyatsiya komissiyasi o‘z xulosasini bitiruvchiga bir kun muddat ichida ma’lum qilishi lozim.

30. Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasining ishi bo‘yicha yillik hisobot oliy ta’lim muassasasi Ilmiy kengashida ko‘rib chiqiladi. Mazkur Ilmiy kengashga yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalari raislari taklif qilinadi.

32. Mazkur Nizomda belgilangan qoidalar bo‘yicha nizolar qonun hujjatlariga muvofiq hal qilinadi.

Nazoratning boshqa turlari:

Davlat-jamoatchilik nazorati - oliy ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organi, jamoat tashkilotlari va kadrlar buyurtmachilari tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi

Tashqi nazorat - belgilangan tartibda Davlat inspeksiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

# IV. АМАЛИЙ МАШҒУЛОТ МАТЕРИАЛЛАРИ

# IV. AMALIY MAShG‘ULOTLAR

## 1-MAVZU: TA’LIM MUASSASALARI FAOLIYATINI ICHKI VA TASHQI BAHOLASHNI AMALGA OSHIRISH (2 soat)

**Ta’lim muassssasalarini ichki baholash va ma’lumot tayyorlash. Ta’lim maussalarini tashqi baholash va xulosa tayyorlash. Tashqi baholash natijalari.**

**Ta’lim tashkilotlarini attestatsiyadan o‘tkazish mezonlari.**

Mazkur mezonlar O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni hamda Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 7 iyundagi 470-son “Davlat ta’lim muassasalari hamda nodavlat ta’lim tashkilotlarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq idoraviy mansubligi va tashkiliy-huquqiy shakllaridan qat’i nazar O‘zbekiston Respublikasining maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, boshlang‘ich professional, o‘rta professional, o‘rta maxsus professional, maktabdan tashqari, oliy, oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limni amalga oshiruvchi oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash davlat ta’lim muassasalarini hamda nodavlat ta’lim tashkilotlarini (bundan buyon matnda ta’lim tashkilotlari deb yuritiladi) attestatsiyadan o‘tkazish mezonlarini belgilaydi.

1. Ta’lim tashkilotlarini attestatsiyasi kadrlar tayyorlash darajasi, mazmuni. va sifatini davlat ta’lim standartlari hamda davlat talablariga muvofiqligini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi.

2. Ta’lim tashkilotlarini attestatsiyadan o‘tkazish mezonlari talablari jismoniy yoki psixik (ruhiy) rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan, shuningdek, uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo‘lgan bolalar va o‘smirlarni o‘qitish, ularni tarbiyalash hamda davolash uchun ixtisoslashtirilgan ta’lim tashkilotlariga tatbiq qilinmaydi.

3. Ta’lim tashkilotlarida attestatsiya ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklar, ixtisosliklar, kasblar va kurslar bo‘yicha o‘tkaziladi hamda ularning faoliyati attestatsiyadan o‘tkazish mezonlari bo‘yicha baholanadi.

4. Tizimida davlat ta’lim muassasalari bo‘lgan vazirliklar va idoralar hamda nodavlat ta’lim tashkilotlari tomonidan taqdim etilgan attestatsiyadan. o‘tkazish jadvali O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi (bundan buyon matnda Davlat inspeksiyasi deb yuritiladi) tomonidan tasdiqlanadi hamda ushbu jadval asosida ta’lim tashkilotlari attestatsiyadan o‘tkaziladi.

5. Ta’lim tashkilotlarini attestatsiyadan o‘tkazish uchun ekspert komissiyalari

(bundan buyon matnda komissiya deb yuritiladi) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 7 iyundagi 470-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat ta'lim muassasalari hamda nodavlat ta'lim tashkilotlarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomga muvofiq tuziladi.

**Oliy ta'lim tashkilotlarini attestatsiyadan o'tkazish.**

17. Oliy ta'lim tashkilotlari quyidagi mezonlar bo'yicha baholanadi:

a) tashkiliy-boshqaruv faoliyatining samaradorligi bo'yicha:

faoliyat sohalarini qamrab olgan oliy ta'lim tashkilotining istiqbol rejasining mavjudligi, uni amalga oshirish uchun chora-tadbirlar rejasining ishlab chiqilganligi hamda istiqbol rejaning oliy ta'lim tashkiloti missiyasiga mosligi;

istiqbol rejani ishlab chiqishda kadr iste'molchilari, oliy ta'lim tashkiloti jamoasi va talabalarning ishtiroki (hissasi);

istiqbol rejada oliy ta'lim tashkilotining o'quv, ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy va ijtimoiy faoliyati nuqtai nazaridan milliy hamda xalqaro reytingini oshirishga qaratilgan vazifalarning belgilanganligi;

istiqbol rejaning oliy ta'lim tashkiloti moddiy-texnik bazasi va intellektual salohiyatiga muvofiqligi, uning talaba, o'qituvchi va xodimlarning ehtiyojlarini qondirishga qaratilganligi;

oliy ta'lim tashkiloti faoliyatini baholashning SWOT tahlili (o'zining kuchli va zaif tomonlarini, oliy ta'lim tashkilotining ta'lim xizmatlari bozoridagi imkoniyatlarini va uning rivojlanishiga tashqi xavflarni baholab borish) mavjudligi;

oliy ta'lim tashkiloti ma'muriyati, professor-o'qituvchilar, talabalar, vasiylik kengashi, kadr iste'molchilari, bitiruvchilar va boshqa manfaatdor tomonlarning ta'lim sifatini amalga oshirish (shakllantirish va ta'minlash) ishlaridagi ishtiroki;

oliy ta'lim tashkilotida korrupsiyasiz ta'lim tizimini ta'minlashga qaratilgan tadbirlarning samaradorligi, rahbariyatining professor-o'qituvchilar va talabalar uchun ochiqligi, kelib tushayotgan barcha murojaatlarga javob berishning holati;

boshqaruv va tashkiliy tuzilma faoliyatining tegishli hujjatlar (ustav, pasport, nizomlar) bilan rasmiylashtirilganligi;

oliy ta'lim tashkiloti kengashi (kollegial organi), fakultetlar, kafedralar va boshqa tarkibiy bo'limlar faoliyati samaradorligini baholash tizimining mavjudligi;

elektron hujjat almashinuvi tizimining mavjudligi;

b) davlat ta'lim standartlarining o'quv jarayoniga joriy etilishi bo'yicha:

barcha ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarning tegishli ta'lim sohasi davlat ta'lim standarti, malaka talablari, o'quv reja va fanlarning o'quv dasturlari bilan ta'minlanganligi, ularning belgilangan tartibda tasdiqlanganligi va ro'yxatdan o'tkazilganligi;

tasdiqlangan o'quv reja va fanlarning o'quv dasturlari asosida ishchi o'quv

reja, fanlarning ishchi dasturlarining ishlab chiqilganligi, rasmiylashtirilganligi va ularning o‘zaro muvofiqligi;

dars jadvallarining ishchi o‘quv rejalariga muvofiqligi va ularning o‘rnatilgan talablar asosida tuzilganligi;

oliy ta’lim tashkiloti o‘quv jarayoni jadvalining mavjudligi, o‘rnatilgan tartibda tasdiqlanganligi, unda o‘quv jarayonining to‘liq aks etganligi va amaliyotga tatbiq etilishi;

talabalar bilimlarini va o‘zlashtirishini baholash tizimining holati;

talabalar bilimlarini baholashda qo‘llaniladigan nazorat vositalarining (testlar, yozma ishlar savollari va boshqalar) fan dasturi mazmunini to‘liq qamrab olganligi;

ta’lim sifatini baholash bo‘yicha ichki tizimning mavjudligi va uning samaradorligi;

v) talabalarning fan dasturlarini o‘zlashtirish darajasi (bilimi) bo‘yicha Davlat inspeksiyasi tomonidan o‘tkaziladigan nazorat ishlari natijalari:

talabalarning fan dasturlarini o‘zlashtirish darajasini aniqlash uchun nazorat ishlariga bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari bitiruvchi kurs talabalarining kamida 30 foizi, qolgan kurslardan (birinchi kurslardan tashqari) bittadan guruh va magistratura mutaxassisliklari bitiruvchi kurs talabalari to‘liq jalb qilinadi. Attestatsiyaga jalb qilingan, ammo bitiruvchi kurs talabalari bo‘lmagan o‘qish muddati uch yillik bo‘lgan magistratura mutaxassisliklarida 2-kurs talabalaridan, o‘qish muddati ikki yillik bo‘lgan magistratura mutaxassisliklarida 1-kurs talabalaridan nazorat ishlari olinadi.

O‘qish muddati bir yillik bo‘lgan magistratura mutaxassisliklari attestatsiyadan o‘tkazilganda, o‘quv yilining birinchi semestrida tahsil olayotgan talabalarning bilim darajasi, kirish sinovlarida nazorat o‘tkazilgan mutaxassislik fanlaridan yoki o‘qitilayotgan fanlarning o‘qitilgan qismidan, ikkinchi semestrda esa o‘qitilgan (o‘qitilayotgan) fanlardan nazorat ishlarini olish orqali aniqlanadi.

Nazorat ishlariga jalb qilingan talabalarning kamida 95 foizi qatnashishi shart. Nazorat ishlari o‘tkaziladigan fanlar qoida tariqasida tugallangan fanlardan kurslar kesimida har bir bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha 3 ta, magistratura mutaxassisligi bo‘yicha 2 ta etib belgilanadi.

Har bir fan bo‘yicha ko‘p variantlilik asosida test yoki yozma ish savollari, ijodiy imtihon materiallari fan dasturini yoki uning tegishli qismini qamrab olgan holda tayyorlanadi.

Bakalavriat ta’lim yo‘nalishlarida dastlab kurslar kesimida har bir yo‘nalishdan 5 tadan, magistruratura mutaxassisligidan 3 tadan fan tanlab olinadi, nazorat ishlari o‘tkaziladigan fanlar va guruhlar bo‘yicha ma’lumotlar ta’lim tashkilotiga Davlat inspeksiyasi tomonidan nazorat ishlari o‘tkazilishidan uch ish kuni oldin ma’lum qilinadi.

Fanlardan o‘tkazilgan nazorat ishlari bo‘yicha talaba tomonidan har bir fandan to‘plangan ball maksimal ballning 56 foizidan kam bo‘lsa “qoniqarsiz”

baho, 56 foizidan 70 foizigacha bo‘lsa “qoniqarli” baho, 71 foizidan 85 foizigacha bo‘lsa “yaxshi” baho, 86 foizi va undan yuqori bo‘lsa “a’lo” baho qo‘yiladi.

Talabalarning fan dasturlarini o‘zlashtirish darajasi (bilimi) muayyan ta’lim yo‘nalishi va magistratura mutaxassisligidagi tanlangan har bir fandan nazorat ishlarida talabalarning ijobiy baholanganlari salmog‘i 70 foizdan kam bo‘lmasligi kerak.

Bakalavriat talabalariga uchta mutaxassislik fanining har biridan 15 tadan jami 45 ta va magistratura uchun ikkita mutaxassislik fanining har biridan 15 tadan jami 30 ta test savollari beriladi.

Testlarni yechish uchun bakalavriat talabalariga umumiy 75 daqiqa va magistratura talabalariga 50 daqiqa vaqt ajratiladi.

Har bir auditoriyaga xona sig‘imi va kompyuterlar soniga qarab test topshiruvchilar kiritiladi;

g) professor-o‘qituvchilarning ilmiy-pedagogik salohiyati va ular mutaxassisliklarining (ixtisosliklarining) dars berayotgan fanlariga muvofiqligi bo‘yicha:

professor-o‘qituvchilarni ishga qabul qilish bo‘yicha aniq mexanizmning mavjudligi;

fakultet va kafedralarning o‘rnatilgan talablarga mos ravishda tashkil etilganligi;

fakultet dekanlari va kafedra mudirlarining lavozim talablariga muvofiqligi;

professor-o‘qituvchilar tayanch ma’lumotlarining (mutaxassisligi, ixtisosligi) ular dars beradigan fan(lar)ga muvofiqligi (mos bo‘lmagan holda ularning tegishli qayta tayyorlashdan o‘tganligi yoki mos ixtisoslik bo‘yicha ilmiy unvon, darajaga ega bo‘lishi, yakka mualliflikda darslik yoki o‘quv qo‘llanma nashr etganligi (sertifikat asosida);

professor-o‘qituvchilarning erishgan yutuqlari (davlat va tarmoq mukofotlari, faxriy unvonlar, “Yilning eng yaxshi pedagogi” respublika tanlovi g‘olibligi va boshqalar) ko‘rsatkichlarining mavjudligi;

professor-o‘qituvchilarning bajargan o‘quv, ilmiy-uslubiy, ilmiy-tadqiqot ishlari (fundamental, amaliy va boshqa ilmiy-tadqiqotlar kesimidagi ishtiroki, darslik, o‘quv qo‘llanma, o‘quv-metodik ishlanmalar, mahalliy va xalqaro nashrlarda, impakt-faktorli (Scopus, Web of Science yoki boshqa umume’tirof etilgan indeksatsiyalangan ma’lumotlar bazalari jurnallaridagi maqolalari);

kafedralar professor-o‘qituvchilarining belgilangan muddatlarda malakasini oshirganligi;

d) talabalarning darslik (elektron darslik) va o‘quv qo‘llanmalari bilan ta’minlanganligi darajasi, elektron kutubxona tizimining mavjudligi, undan foydalanish samaradorligi va mustaqil ta’lim bo‘yicha axborot resurslaridan foydalanish imkoniyatining yaratilganligi bo‘yicha:

oliy ta’lim tashkilotida elektron avtomatlashtirilgan va masofadan foydalanish imkoniyatini beruvchi axborot-resurs markazining mavjudligi;

ta’lim berish tillari bo‘yicha barcha ta’lim yo‘nalishlari, mutaxassisliklarning o‘quv adabiyotlari bilan ta’minlanganligi;

talabalar sonidan kelib chiqib, har bir fan bo‘yicha o‘qitiladigan asosiy adabiyotlarga (darslik, o‘quv qo‘llanma) bo‘lgan talabning (bakalavriat ta’lim yo‘nalishida har olti nafar talabaga kamida bir dona, magistratura mutaxassisligida har ikki nafar talabaga kamida bir dona darslik va o‘quv qo‘llanmani to‘g‘ri kelishi) bajarilganligi (o‘quv adabiyotlari soni belgilangan talablarga mos kelmaganda, ularning elektron shakldagi varianti inobatga olinadi);

ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklarning o‘quv adabiyotlari bilan ta’minlanganlik darajasining tahliliy o‘rganib borilganligi, shuningdek oliy ta’lim tashkiloti kengashida (kollegial organida) muhokama qilinganligi;

mahalliy, xalqaro axborot va ma’lumotlar bazasidan (Scopus, Web of Science yoki boshqa umume’tirof etilgan indeksatsiyalangan ma’lumotlar bazalari jurnallari) foydalanish imkoniyatlarining yaratilganligi;

fanlarni o‘quv adabiyotlari bilan ta’minlash va yangi avlod o‘quv adabiyotlarini yaratish chora-tadbirlarining ishlab chiqilganligi va ularning bajarilish holati;

ye) moddiy-texnik ta’minoti, o‘quv laboratoriyalarining zamonaviy asbob-uskunalar bilan hamda foydali o‘quv-laboratoriya maydoni bilan ta’minlanganligi darajasi bo‘yicha:

oliy ta’lim tashkilotining umumiy maydoni, normadagi (ishchi) maydoni, umumiy o‘quv auditoriyalari (sinflar) maydoni va boshqa turdagi foydali maydonlar (kv.m. hisobida), ularning me’yor talablariga mosligi;

oliy ta’lim tashkilotida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalarining mavjudligi, ularning ta’lim oluvchilar soniga mosligi va yangilanish darajasi;

talabalar turar joylarining maydoni, yashash uchun mo‘ljallangan o‘rinlar soni, vaqtinchalik turar joyga muhtoj talabalar soni;

jismoniy tarbiya darslarini o‘tish, sog‘lomlashtirish tadbirlarini o‘tkazish hamda jamoaning sport bilan shug‘ullanishi uchun shart-sharoitlarning yetarli darajada yaratilganligi;

har bir ta’lim yo‘nalishi va mutaxassislikning o‘quv rejasiga binoan fanlar bo‘yicha laboratoriya ishlarining bajarilishi, tegishli jihozlar, reaktivlar bilan ta’minlanganligi, metodik ko‘rsatmalarning mavjudligi;

laboratoriya ishlarining oliy ta’lim tashkiloti hududidan tashqarida (ishlab chiqarish korxonasi, tashkilotlar, o‘quv-tajriba xo‘jaligi va shu kabilarda) bajarilganligi;

ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining xususiyatlaridan kelib chiqib, malaka talablarida belgilangan amaliy malaka va ko‘nikmalarning shakllanishi uchun kerakli asbob-uskuna, jihozlar, inventarlar, musiqa asboblari, texnikalar, xom-ashyo va boshqalar bilan ta’minlanganligi;

axborot-resurs markazining (kutubxonaning) kompyuterlar bilan ta’minlanganligi, zallardagi o‘rinlar soni, elektron kutubxona tizimining yaratilganligi, ularga o‘quv adabiyotlarning elektron versiyalarini yuklanganligi, Internet jahon axborot tarmog‘iga ulangan kompyuterlar soni va talabalarni kompyuter texnikasidan erkin foydalanishiga imkon yaratilganligi;

yo) elektron ta’limning joriy etilishida zamonaviy pedagogik, axborot-kommunikatsiya va innovatsion texnologiyalarning qo‘llanilishi bo‘yicha:

professor-o‘qituvchilarning zamonaviy pedagogik, axborot-kommunikatsiya va innovatsion texnologiyalardan foydalanib o‘tilgan dars mashg‘ulotlari salmog‘i;

interfaol pedagogik usullar yordamida dars mashg‘ulotlarining olib borilganligi hamda innovatsiyalarning o‘quv jarayoniga qo‘llanilganligi;

o‘quv jarayonida ilg‘or axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va zamonaviy vositalardan foydalangan holda mashg‘ulotlar olib borish uchun sharoitlarning yaratilganligi;

zamonaviy kompyuterlar va ulardan Internet jahon axborot tarmog‘iga ulanganlarining soni, WiFi zonalarining tashkil etilganligi, talaba va pedagoglarga ulardan foydalanish bo‘yicha shart-sharoitlarning yaratilganligi;

mustaqil ta’lim jarayonini tashkil etish holati va Internet jahon axborot tarmog‘iga joylashtirilgan ta’lim resurslari hajmi;

talabalar bilimini baholashda nazorat sinovlarining kompyuterdan foydalangan holda olinishi tahlili;

j) ta’limning ishlab chiqarish va ilm-fan bilan integratsiyasi bo‘yicha:

kadrlar tayyorlash va ilmiy-texnologik yechimlar yaratishda korxona va tashkilotlarning ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanganlik darajasi;

ilg‘or texnologiya sohasida pedagog kadrlarning malakasini bevosita ishlab chiqarishda oshirilib borilganligi;

ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklar bo‘yicha kadr iste’molchilari bilan hamkorlik ishlarining yo‘lga qo‘yilganligi, talab va ehtiyojlarining o‘rganilganligi;

ilmiy-tadqiqot institutlari va tashkilotlar xodimlarining o‘quv jarayoniga jalb etilganligi;

tasarrufidagi akademik litsey va biriktirilgan boshlang‘ich professional, o‘rta professional, o‘rta maxsus professional ta’lim tashkilotlari bilan hamkorlik ishlarining yo‘lga qo‘yilganligi;

z) ilmiy-tadqiqot faoliyati bo‘yicha:

professor-o‘qituvchilarni faol ilmiy izlanishlar olib borishga qiziqtirish va ularning natijadorligi bo‘yicha rag‘batlantirish mexanizmining mavjudligi;

olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarining oliy ta’lim tashkiloti profiliga to‘g‘ri kelishi;

ilmiy va ilmiy-texnik faoliyat natijalarining tijoratlashtirilganligi;

professor-o‘qituvchilar, talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlaridagi (fundamental, amaliy va boshqa ilmiy tadqiqotlar kesimida) ishtiroki;

ilmiy, ilmiy-metodik va amaliy konferensiyalarning o‘tkazilganligi;

oliy ta’lim tashkilotining xalqaro va respublika miqyosidagi tanlov va ko‘rgazmalardagi ishtiroki;

ilmiy-tadqiqot ishlarining samaradorligi (ilmiy tadqiqot ishlari natijalarining ishlab chiqarishga joriy etilganligi, yuqori malakali ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash holati, faoliyat ko‘rsatayotgan ilmiy kengashning mavjudligi);

i) ma’naviy-ma’rifiy faoliyati bo‘yicha:

ma’naviy-ma’rifiy ishlar rejasining ishlab chiqilganligi;

professor-o‘qituvchilarning tarbiyaviy ishlarga jalb etilganligi;

odob-axloq va ichki-tartib qoidalarni buzgan, huquqbuzarlik va jinoyatlar sodir etgan (huquqni muhofaza qiluvchi organlarning rasmiy ma’lumotlari asosida) professor-o‘qituvchi va talabalarga nisbatan oliy ta’lim tashkiloti va tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan choralar ko‘rilganligi;

oliy ta’lim tashkilotidagi ma’naviy-axloqiy muhitni, pedagoglarning axloqiy sifatlarini ma’naviy-ma’rifiy ishlar va yoshlar bilan ishlash bo‘yicha mas’ul bo‘lim tomonidan muntazam ravishda (so‘rovnoma asosida) tahlil qilinib borilganligi;

xalqaro va respublika miqyosidagi ma’naviy-ma’rifiy ko‘rik-tanlovlarda, olimpiadalarda, sport musobaqalarida sovrinli o‘rinlarni egallagan talabalar salmog‘i;

talabalar turar joylarida talabalar uchun o‘qish va dam olish uchun shart-sharoitlarning yaratilganligi;

talabalar o‘rtasida ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy yo‘nalishdagi faoliyatning tizimli yo‘lga qo‘yilganligi, uning samaradorligi va bunda talaba-yoshlar qamrovi;

oliy ta’lim tashkilotining axborot-resurs markazi (kutubxona)dagi adabiyotlardan foydalanayotgan talabalar salmog‘i;

yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasidagi qobiliyatini namoyon qilishga va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etishga yo‘naltirilgan sportning bir necha turlari bo‘yicha musobaqalarning (tadbirlarning) tashkil qilinganligi;

y) bitiruvchilarning ta’limning keyingi bosqichlariga o‘qishga yoki ishga joylashishi bo‘yicha:

bitiruvchilarni ish joylariga taqsimlash bo‘yicha oliy ta’lim tashkilotidagi taqsimot komissiyasi qarorlarining mavjudligi;

so'nggi ikki o'quv yilida oliy ta'lim tashkilotini davlat grantlari asosida bitirgan talabalarning ishga joylashganligi (asoslovchi hujjatlarning mavjudligi);

so'nggi ikki o'quv yilida oliy ta'lim tashkilotini bitirganlarning ishga joylashish holati bo'yicha monitoring olib borilganligi;

kadr iste'molchilari bilan o'zaro hamkorlikdagi ishlarning holati;

sobiq bitiruvchilar bilan oliy ta'lim tashkiloti o'rtasidagi aloqalarning yo'lga qo'yilganligi;

k) xalqaro hamkorlikning yo'lga qo'yilganligi bo'yicha:

xorijiy mamlakatlar bilan shartnoma asosida talaba, doktorant, mustaqil izlanuvchi, ilmiy xodimlar va professor-o'qituvchilar almashinuvi;

xalqaro ilmiy tadbirlarning tashkil etilishi (seminar, anjuman, simpozium va hokazo);

xalqaro sovrinlar sohiblari;

xorijiy mamlakatlardagi metodik va ilmiy seminarlar a'zolari;

muntazam xorijiy ilmiy aloqaga ega bo'lgan professor-o'qituvchilar soni;

qo'shma ta'lim dasturlari va qo'shma fakultetlar asosida kadrlar tayyorlashning yo'lga qo'yilganligi;

chet el grantlari asosida bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari (nomi, soni, hajmi);

xorijiy mamlakatlarda chop etilgan monografiya, maqola va o'quv adabiyotlari soni (turlari bo'yicha);

ta'lim olish uchun xorijiy fuqarolarning jalb etilishi;

ilmiy-pedagog kadrlarning xorijda malaka oshirganligi;

xorijiy oliy ta'lim muassasalari va xorijiy ilmiy markazlar professor-o'qituvchilari va mutaxassislarining ta'lim jarayoniga jalb etilishi;

xorijiy mamlakatlar uchun tayyorlangan kadrlar va ilmiy darajali kadrlar soni;

l) abiturientlarni o'qishga qabul qilish jarayonining tashkil etilishi va amalga oshirilishi bo'yicha:

abiturientlarni o'qishga belgilangan talab va tartib asosida qabul qilinganligi;

oliy ta'lim tashkilotining hududlardan iqtidorli yoshlarni tanlab olishga qaratilgan ishlarning (turli tanlovlar, tayyorlov kurslari va hokazo) amalga oshirilganligi;

m) bitiruvchilar tomonidan bitiruv malakaviy ishlari va magistrlik dissertatsiyalarining bajarilishi (sifati), yakuniy davlat attestatsiyasiga oid faoliyat va uning natijalari bo'yicha:

bitiruv malakaviy ishlari va magistrlik dissertatsiyalari mavzulari bankining yaratilganligi;

bitiruv malakaviy ishlari va magistrlik dissertatsiyalarini bajarishda mualliflikni o'zlashtirishga (plagiat) yo'l qo'yilishi holatlarini oldini olishga qaratilgan choralarning belgilanganligi;

bitiruv malakaviy ishlari, magistrlik dissertatsiyalarining bajarilish sifati, dolzarbligi, qo‘yilgan talablar asosida bajarilganligi, o‘quv jarayoni va ishlab chiqarishga joriy qilinganligi (tanlov asosida o‘rganiladi);

yakuniy davlat attestatsiya komissiyalarining qo‘yilgan talab bo‘yicha shakllantirilganligi, yakuniy davlat attestatsiya natijalari va komissiya raisi hisobotini oliy ta’lim tashkiloti kengashida ko‘rib chiqilganligi;

n) ish beruvchilarning bitiruvchilar bilimi, malakasi va ko‘nikmalaridan qoniqishi holati bo‘yicha respublika miqyosida kadrlar buyurtmachilari o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari.

Bitiruvchilar malakasining ishlab chiqarish talablariga mos kelishini aniqlash, kadrlar tayyorlashda yo‘l qo‘yilayotgan kamchiliklar va ularni bartaraf qilish maqsadida har yili respublika miqyosida kadrlar buyurtmachilari o‘rtasida o‘tkazilgan milliy so‘rovnoma natijalari tahlili asosida baholanadi.

So‘rovnomada qatnashgan ish beruvchilarning bitiruvchilar bilimi, malakasi va ko‘nikmalaridan qoniqishi holati kamida 55 foiz bo‘lishi kerak.

Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limni amalga oshiruvchi oliy ta’lim tashkilotlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarini attestatsiyadan o‘tkazish.

18. Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limni amalga oshiruvchi oliy ta’lim tashkilotlari va ilmiy-tadqiqot muassasalari quyidagi mezonlar bo‘yicha baholanadi:

a) davlat talablarining ta’lim jarayoniga joriy etilishi bo‘yicha:

oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limga qo‘yiladigan davlat talablarining mavjudligi;

oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tashkilotiga qabul qilish talablarining bajarilishi;

oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tashkilotiga o‘qishga kiruvchi talabgorlarga qo‘yiladigan talablarning bajarilishi;

oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tashkilotida o‘qishni tashkil etish holati;

b) ilmiy rahbar va maslahatchilar tarkibining sifat ko‘rsatkichlari hamda ularning ilmiy-tashkiliy faoliyati natijalari bo‘yicha:

ilmiy rahbarlar etib ilmiy va ilmiy-pedagogik faoliyat olib boruvchi fan doktori, shuningdek ilmiy unvonga ega bo‘lgan fan nomzodi yoki falsafa doktorlarining (PhD) tayinlanganligi;

ilmiy maslahatchilar etib ilmiy va ilmiy-pedagogik faoliyat olib boruvchi fan doktorlarining tayinlanganligi;

oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tashkilotlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarida faoliyat yuritayotgan fan doktorlarining ilmiy rahbarlik yoki ilmiy maslahatchilikka jalb etilganligi;

ilmiy rahbarlar va ilmiy maslahatchilarning bir vaqtning o‘zida nechta

doktorant va mustaqil izlanuvchilarga ilmiy rahbarlik qilayotganligi;

o‘qishga qabul qilish to‘g‘risidagi buyruqda ilmiy rahbarlar va ilmiy maslahatchilarning (ilmiy maslahatchi bo‘lgan taqdirda) tayinlanganligi;a*

doktorant tomonidan ilmiy rahbar va ilmiy maslahatchi (ilmiy maslahatchi tayinlangan holatlarda) bilan birgalikda dissertatsiya ishini tayyorlashning yakka tartibdagi rejasi ishlab chiqilganligi va belgilangan muddatlarda tasdiqlanganligi;

ilmiy rahbar tomonidan doktorant uchun ixtisoslik bo‘yicha nazariy-metodologik dastur ishlab chiqilganligi va belgilangan muddatda kollegial organ tomonidan tasdiqlanganligi;

nazariy-metodologik dasturni doktorant tomonidan o‘qishning birinchi yili mobaynida ilmiy rahbar yordamida o‘zlashtirilganligi;

ilmiy rahbar rahbarligida so‘nggi uch yilda bitirgan doktorant va mustaqil izlanuvchilarning o‘z vaqtida himoya qilganlari salmog‘i;

ilmiy maslahatchi rahbarligida so‘nggi uch yilda bitirgan doktorant va mustaqil izlanuvchilarning o‘z vaqtida himoya qilganlari salmog‘i;

doktorant va mustaqil izlanuvchilarga ilmiy rahbar va ilmiy maslahatchilarning jami fan doktorlari va ilmiy unvonga ega bo‘lgan fan nomzodlari yoki falsafa doktorlariga (PhD) nisbatan ulushi;

v) ta’limni amalga oshirish jarayoniga jalb etilgan, pedagog va ilmiy xodimlarning O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi e’tirof etgan jurnallarda, shuningdek, xorijiy nashrlarda ilmiy maqolalarni chop etish faoliyati tahlili;

g) ilmiy-eksperimental, moddiy-texnik bazaning holati bo‘yicha:

ilmiy-eksperimental laboratoriyalar bilan ta’minlanganlik darajasi, ularning zamonaviy asbob-uskunalar bilan ta’minlanganligi va ulardan foydalanilishi holati;

oliy ta’lim tashkiloti va ilmiy-tadqiqot muassasasi axborot-resurs markazlarida tadqiqot sohasi bo‘yicha ilmiy manbalarning mavjudligi;

ilmiy-tadqiqotlarni olib borish uchun asbob-uskunalar, materiallar, axborot-kommunikatsiya vositalari, kompyuter texnikasi, maishiy texnika va boshqa zarur vositalarning yetarli darajada mavjudligi;

d) doktorant va mustaqil izlanuvchilarga ijtimoiy, ilmiy, ijodiy hamda loyihalash ishlarini olib borishlari uchun yaratilgan shart-sharoitlar bo‘yicha:

doktorantlarning vaqtinchalik turar joylar bilan ta’minlanganlik holati;

oliy ta’lim tashkiloti va ilmiy-tadqiqot muassasasida sport bilan shug‘ullanish uchun zarur shart-sharoitlarning mavjudligi;

doktorant va mustaqil izlanuvchilar uchun oliy ta’lim tashkiloti va ilmiy-tadqiqot muassasasida axborot-resurs markazidan, zamonaviy kompyuterlardan hamda Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanish imkoniyati, shuningdek boshqa zarur shart-sharoitlarning yaratilganligi;

mahalliy hamda xalqaro axborot va ma’lumotlar bazasidan (Scopus, Web of Science yoki boshqa umume’tirof etilgan indeksatsiyalangan ma’lumotlar bazalari jurnallari) foydalanish imkoniyatlarining yaratilganligi;

ye) doktorant va mustaqil izlanuvchilar shaxsiy ish rejalarining bajarilishi, hisobotlarining oliy ta’lim tashkilotlarining yoki ilmiy-tadqiqot muassasalarining kollegial organlarida (ilmiy kengash, kengash, ilmiy-texnikaviy kengash, ilmiy-muvofiqlashtiruvchi kengash va boshqalarda) muhokama qilinganligi hamda tasdiqlangan rejaga mos deb topilganligi bo‘yicha:

doktorant va mustaqil izlanuvchilar shaxsiy ish rejalarining bajarilishi;

hisobotlarning oliy ta’lim tashkiloti yoki ilmiy-tadqiqot muassasasi kengashida, tegishli kafedra, bo‘lim, laboratoriya va boshqalarda muhokama qilinganligi hamda tasdiqlangan rejaga mosligi;

doktorant va mustaqil izlanuvchi tomonidan e’lon qilingan ilmiy ishlarda himoya qilinayotgan doktorlik dissertatsiyasi asosiy natijalarining aks etganligi hamda ilmiy natijalarning xalqaro va respublika doirasida o‘tkaziladigan ilmiy konferensiyalarda, seminarlarda va davra suhbatlarida muhokamadan o‘tkazilganligi;

doktorant va mustaqil izlanuvchi tomonidan ilmiy ishlarning O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan e’tirof etilgan respublika va xorijiy jurnallarda, shu jumladan elektron ilmiy-texnik jurnallar ro‘yxatiga kiritilgan ilmiy nashrlarda ilmiy maqolalarning nashr etilishi holati;

ijtimoiy-gumanitar va iqtisodiyot sohalari bo‘yicha fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasini olish uchun izlanuvchilar tomonidan dissertatsiya natijalari yuzasidan monografiya e’lon qilinganligi;

yo) doktorant va mustaqil izlanuvchilar faoliyati samaradorligi monitoringining olib borilishi holati bo‘yicha:

doktorant va mustaqil izlanuvchilarning oliy ta’lim tashkiloti va ilmiy-tadqiqot muassasasidagi faoliyati samaradorligi bo‘yicha o‘tkazilgan monitoring natijalari;

monitoring natijalaridan kelib chiqib doktorant, mustaqil izlanuvchilar, ularning ilmiy rahbarlari hamda ilmiy maslahatchilariga nisbatan tegishli xulosalarning chiqarilganligi;

j) oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim institutini bitirgan doktorantlar va mustaqil izlanuvchilarning falsafa doktori (PhD) va fan doktori (Doctor of Science) dissertatsiyalarini himoya qilishi holati bo‘yicha:

ixtisosliklar bo‘yicha so‘nggi uch yilda tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchilar institutini bitirganlar va ulardan ilmiy-tadqiqot ishini himoya qilganlar hamda ilmiy kengashga himoyaga taqdim etganlar ulushining tahlili;

ilmiy-tadqiqot ishlari himoyasi natijalaridan kelib chiqib, doktorant, mustaqil izlanuvchi va uning ilmiy rahbari yoki ilmiy maslahatchisiga nisbatan tegishli xulosalarning chiqarilganligi (intizomiy chora yoki rag'batlantirish).

19. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim ixtisosliklarini oxirgi uch yilda bitirgan doktorantlar va mustaqil izlanuvchilar dissertatsiyalarining ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengashda himoya qilinganlari soni 10 foizdan kam bo'lmasligi kerak.

**Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta'lim tashkilotlarini attestatsiyadan o'tkazish.**

20. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta'lim tashkilotlari quyidagi mezonlar bo'yicha baholanadi:

a) tashkiliy-boshqaruv faoliyatining samaradorligi bo'yicha:

ilmiy-metodik kengash faoliyati va o'quv jarayonining tashkil etilishi;

malaka oshirish va qayta tayyorlash ta'lim tashkilotining maqsadi va vazifalari, rivojlantirish bo'yicha istiqbol reja va so'nggi ikki yildagi ish rejalarining mavjudligi va uning bajarilishi;

istiqbol rejani ishlab chiqishda professor-o'qituvchilar, asosiy kadr iste'molchilarining ishtiroki;

hisobot va hujjat aylanishini yuritishning avtomatlashtirilgan tizimini joriy etilganligi;

ta'lim tashkilotining normativ-huquqiy hujjatlar bilan ta'minlanishi, ushbu normativ-huquqiy hujjatlarning ta'lim tashkiloti boshqaruviga tatbiq etilishi tahlili;

b) davlat talablarining o'quv jarayoniga joriy etilishi bo'yicha:

kurslarning davlat talablari, o'quv va ishchi o'quv rejalari, fanlarning o'quv va ishchi dasturlari bilan ta'minlanganligi va ularning o'zaro mosligi;

kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlashga qo'yilgan talablarning bajarilishi;

kalendar-tematik rejalar, darslar jadvali, guruh jurnali, ishchi o'quv dasturlarining ishchi o'quv rejalariga muvofiqligi, professor-o'qituvchilar shaxsiy ish rejalarining bajarilishi;

tinglovchilar bilimlarini baholashda qo'llaniladigan nazorat vositalarining (testlar, yozma ishlar savollari va boshqalar) fan dasturi mazmunini to'liq qamrab olganligi;

tinglovchilarning fan dasturlarini o'zlashtirish darajasi (bilimi) ta'lim tashkiloti tomonidan o'tkazilgan yakuniy nazoratlarning tahlili;

v) moddiy-texnik ta'minoti bo'yicha:

moddiy-texnik, o'quv-laboratoriya ta'minoti, ularning zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlanishi;

laboratoriya ishlarining bajarilishi va metodik ko'rsatmalar bilan

ta’minlanganligi;

g) pedagog kadrlarning ilmiy-pedagogik salohiyati bo‘yicha:

pedagog kadrlarning tayanch ma’lumoti quyidagilardan biriga mos bo‘lishi kerak:

dars beradigan faniga;

dars beradigan fani bo‘yicha qayta tayyorlashdan o‘tgan hujjatiga;

mos ixtisoslik bo‘yicha ilmiy unvon yoki darajaga ega bo‘lishiga;

yakka mualliflikda darslik yoki o‘quv qo‘llanma nashr etganligiga (sertifikat asosida);

ilmiy darajali va ilmiy unvonli pedagoglar salmog‘i, so‘nggi ikki tugallangan kalendar yilda pedagoglar tomonidan malaka oshirish tizimi uchun nashr etilgan o‘quv qo‘llanma, uslubiy qo‘llanma, uslubiy ko‘rsatmalar soni, ilmiy-tadqiqot ishlari natijalarining nashr etilishi hamda malaka oshirish faoliyati;

d) o‘quv jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining joriy etilishi bo‘yicha kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta’lim tashkilotining zamonaviy kompyuter texnikasi bilan ta’minlanganligi hamda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi;

ye) ta’limning ishlab chiqarish bilan integratsiyasi hamda xalqaro hamkorlik faoliyati bo‘yicha:

kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta’lim tashkiloti faoliyatida ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish darajasi;

zamonaviy texnologiyalar sohasida pedagog kadrlarning malakasini bevosita ishlab chiqarishda oshirib borganligi;

kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlashga bo‘lgan talabning o‘rganilganligi;

ilmiy-tadqiqot institutlari xodimlarining o‘quv jarayonida ishtirok etishi;

xalqaro hamkorlik faoliyatining yo‘lga qo‘yilganligi;

yo) bitiruv imtihonlari, malaka va bitiruv ishlarining bajarilishi bo‘yicha:

bitiruv imtihonlari, kirish-chiqish testlari natijalari;

malaka va bitiruv ishi mavzulari bankining shakllantirilganligi;

malaka va bitiruv ishlarining rasmiylashtirilishi va sifati;

j) malaka oshirish va qayta tayyorlash yakuni bo‘yicha diplomlar, guvohnomalar, sertifikatlarning rasmiylashtirilishi va berilishi bo‘yicha:

diplomlar, guvohnomalar va sertifikatlarning berilishi holati;

diplomlar, guvohnomalar va sertifikatlarning berilishini qayd etish kitobining rasmiylashtirilishi.

**Bajarilishi shart bo‘lgan mezonlar.**

*Qolgan mezonlar ta’lim tashkilotining faoliyati bo‘yicha xulosa berishda*

*hisobga olinadi.*

**2014 yilda Oliy ta'lim muassasalarida o'tkazilgan attestatsiya natijalari to'g'risida ma'lumot**

| № | OTM nomi | Attestatsiyaga jalb qilinganlari soni | | Attestatsiyadan o'tganlari soni | | Attestatsiyadan o'tmaganlari soni | | OTMning attestatsiyadan o'tganligi | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | yo'nalishlar | mutaxassisliklar | yo'nalishlar | mutaxassisliklar | yo'nalishlar | mutaxassisliklar | foizda | Izoh |
| 1 | Toshkent temir yo'l muxandislari instituti | 17 | 12 | 17 | 12 | 0 | 0 | 100 | Attestatsiyadan o'tdi |
| 2 | Samarqand davlat tibbiyot instituti | 4 | 21 | 4 | 21 | 0 | 0 | 100 | Attestatsiyadan o'tdi |
| 3 | Toshkent pediatriya tibbiyot instituti | 3 | 23 | 3 | 22 | 0 | 1 | 96 | Attestatsiyadan o'tdi |
| 4 | Toshkent pediatriya tibbiyot institutining Nukus filiali | 4 | 0 | 3 | 0 | 1 | 0 | 75 | Attestatsiyadan o'tdi |
| 5 | Samarqand qishloq xo'jalik instituti | 17 | 9 | 17 | 8 | 0 | 1 | 96 | Attestatsiyadan o'tdi |
| 6 | Toshkent tibbiyot akademiyasi | 5 | 44 | 5 | 42 | 0 | 2 | 96 | Attestatsiyadan o'tdi |
| 7 | Toshkent tibbiyot akademiyasining Farg'ona filiali | 2 | 0 | 2 | 0 | 0 | 0 | 100 | Attestatsiyadan o'tdi |
| 8 | Toshkent tibbiyot akademiyasining Urganch filiali | 3 | 0 | 2 | 0 | 1 | 0 | 67 | Attestatsiyadan shartli o'tdi |
| 9 | Andijon davlat tibbiyot instituti | 4 | 18 | 4 | 17 | 0 | 1 | 95 | Attestatsiyadan o'tdi |
| 10 | Samarqand davlat universiteti | 26 | 31 | 23 | 29 | 3 | 2 | 91 | Attestatsiyadan o'tdi |
| 11 | Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti | 18 | 21 | 16 | 19 | 2 | 2 | 90 | Attestatsiyadan o'tdi |
| 12 | Toshkent farmasevtika instituti | 5 | 4 | 5 | 3 | 0 | 1 | 89 | Attestatsiyadan o'tdi |
| 13 | Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti | 3 | 5 | 2 | 5 | 1 | 0 | 88 | Attestatsiyadan o'tdi |
| 14 | O'zbekiston Milliy universiteti | 34 | 56 | 27 | 51 | 7 | 5 | 87 | Attestatsiyadan o'tdi |
| 15 | Toshkent moliya instituti | 12 | 13 | 11 | 10 | 1 | 3 | 84 | Attestatsiyadan o'tdi |
| 16 | Toshkent davlat sharqshunoslik instituti | 18 | 18 | 15 | 15 | 3 | 3 | 83 | Attestatsiyadan o'tdi |
| 17 | Qoraqalpoq davlat universiteti | 36 | 16 | 28 | 15 | 8 | 1 | 83 | Attestatsiyadan o'tdi |
| 18 | Andijon davlat universiteti | 20 | 8 | 15 | 8 | 5 | 0 | 82 | Attestatsiyadan o'tdi |

| | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 19 | Samarqand iqtisodiyot va servis instituti | 10 | 6 | 8 | 5 | 2 | 1 | 81 | Attestatsiyadan o'tdi |
| 20 | Samarqand davlat me'mor-chilik-qurilish instituti | 17 | 9 | 12 | 9 | 5 | 0 | 81 | Attestatsiyadan o'tdi |
| 21 | Nukus davlat pedagogika instituti | 19 | 7 | 14 | 7 | 5 | 0 | 81 | Attestatsiyadan o'tdi |
| 22 | Toshkent davlat pedagogika universiteti | 27 | 23 | 20 | 20 | 7 | 3 | 80 | Attestatsiyadan o'tdi |
| 23 | Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti | 14 | 20 | 10 | 16 | 4 | 4 | 76 | Attestatsiyadan o'tdi |
| 24 | O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti | 8 | 9 | 4 | 9 | 4 | 0 | 76 | Attestatsiyadan o'tdi |
| 25 | Samarqand davlat chet tillar instituti | 9 | 3 | 6 | 3 | 3 | 0 | 75 | Attestatsiyadan o'tdi |
| 26 | Toshkent avtomobil yo'llar instituti | 13 | 13 | 10 | 8 | 3 | 5 | 69 | Attestatsiyadan shartli o'tdi |
| 27 | Toshkent kimyo texnologiya instituti | 21 | 21 | 13 | 16 | 8 | 5 | 69 | Attestatsiyadan shartli o'tdi |
| 28 | Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti | 24 | 4 | 15 | 4 | 9 | 0 | 68 | Attestatsiyadan shartli o'tdi |
| 29 | Andijon mashinasozlik instituti | 9 | 0 | 6 | 0 | 3 | 0 | 67 | Attestatsiyadan shartli o'tdi |
| 30 | Termiz davlat universiteti | 25 | 8 | 18 | 6 | 7 | 2 | 73 | Attestatsiyadan shartli o'tdi |
| 31 | Andijon qishlok xo'jalik instituti | 11 | 0 | 8 | 0 | 3 | 0 | 73 | Attestatsiyadan shartli o'tdi |
| | **Jami** | **438** | **422** | **343** | **380** | **95** | **42** | **84** | |

**2015-2016 yillarda oliy ta'lim muassasalarida o'tkazilgan attestatsiya natijalari to'g'risida ma'lumot**

| № | OTM nomi | Attestatsiyaga jalb qilinganlari soni | | Attestatsiyadan o'tganlari soni | | Attestatsiyadan o'tmaganlari soni | | OTMning attestatsiyadan o'tganligi | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | yo'na-lishlar | mutaxassisliklar | yo'nalishlar | mutaxassisliklar | yo'na-lishlar | mutaxassislik-lar | foizda | izoh |
| 1 | Termiz davlat universitetit | 32 | 7 | 29 | 6 | 3 | 1 | 89,7 | Attestatsiya-dan o'tdi |
| 2 | O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti | 15 | 4 | 13 | 2 | 2 | 2 | 78,9 | Attestatsiya-dan o'tdi |
| 3 | Soliq akademiyasi | 1 | 1 | 1 | 1 | | | 100,0 | Attestatsiya-dan o'tdi |
| 4 | Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali | 3 | | 3 | | | | 100,0 | Attestatsiya-dan o'tdi |
| 5 | Toshkent kimyo texnologiya instituti | 24 | 20 | 19 | 20 | 5 | | 88,6 | Attestatsiya-dan o'tdi |
| 6 | O'zbekiston davlat konservatoriyasi | 13 | 11 | 10 | 10 | 3 | 1 | 83,3 | Attestatsiya-dan o'tdi |
| 7 | Toshkent avtomobil yo'llari instituti | 15 | 13 | 11 | 13 | 4 | | 85,7 | Attestatsiya-dan o'tdi |
| 8 | Andijon qishloq xo'jalik instituti | 11 | 3 | 10 | 2 | 1 | 1 | 85,7 | Attestatsiya-dan o'tdi |
| 9 | Qarshi muxandislik iqtisodiyot instituti | 23 | 7 | 20 | 7 | 3 | 0 | 90,0 | Attestatsiya-dan o'tdi |
| 10 | Toshkent davlat milliy raqs va xoreografiya oliy maktabi | 3 | 3 | 2 | 3 | 1 | 0 | 83,3 | Attestatsiya-dan o'tdi |
| 11 | Andijon mashina-sozlik instituti | 8 | 3 | 6 | 3 | 2 | 0 | 81,8 | Attestatsiya-dan o'tdi |

| | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 12 | Toshkent davlat texnika universiteti | 41 | 45 | 5 | 24 | 36 | 21 | 33,7 | Attestatsiya-dan o‘tmadi |
| 13 | Toshkent arxitektura qurilish instituti | 16 | 15 | 9 | 15 | 7 | 0 | 77,4 | Attestatsiyadan o‘tdi |
| 14 | Guliston davlat universiteti | 18 | 3 | 14 | 3 | 4 | 0 | 81,0 | Attestatsiyadan o‘tdi |
| 15 | O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti | 22 | 2 | 15 | 1 | 7 | 1 | 66,7 | Attestatsiya-dan shartli o‘tdi |
| 16 | Buxoro davlat tibbiyot instituti | 3 | 4 | 3 | 4 | | | 100 | Attestatsiya-dan o‘tdi |
| 17 | Toshkent islom universiteti | 5 | 3 | 4 | 3 | 1 | 0 | 87,5 | Attestatsiya-dan o‘tdi |
| | **Jami** | **253** | **144** | **174** | **117** | **78** | **27** | **73,3** | |

**2017 yilda oliy ta’lim muassasalarida o‘tkazilgan attestatsiya natijalari to‘g‘risida ma’lumot.**

| **№** | **OTM nomi** | **Attestatsiyaga jalb qilinganlari soni** | | **Attestatsiyadan o‘tganlari soni** | | **Attestatsiyadan o‘tmaganlari soni** | | **OTMning attestatsiyadan o‘tganligi** | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | **yo‘nalishlar** | **mutaxassisliklar** | **yo‘nalishlar** | **mutaxassisliklar** | **yo‘nalishlar** | **mutaxassisliklar** | **foizda** | **izoh** |
| 1 | Toshkent axborot texnologiyalari universiteti | 2 | 7 | | 7 | 2 | | 77,8 | Attestatsiyadan o‘tdi |
| 2 | Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Urganch filiali | | 1 | | 1 | | | 100,0 | Attestatsiyadan o‘tdi |
| 3 | Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali | | 1 | | 1 | | | 100,0 | Attestatsiyadan o‘tdi |
| 53 | Navoiy davlat pedagogika instituti | 34.7 | 6.2 | 6.66 | 21.56 | 0.29 | -5 |
| 54 | Jizzax davlat pedagogika instituti | 34.34 | 9.11 | 5.85 | 19.02 | 0.36 | +3 |
| 55 | Guliston davlat universiteti | 33.66 | 6.8 | 7.7 | 18.38 | 0.79 | 0 |
| 56 | Qo'qon davlat pedagogika instituti | 33.28 | 5.55 | 7.42 | 20.12 | 0.19 | 0 |
| 57 | Nukus davlat pedagogika instituti | 31.38 | 6.31 | 7.43 | 17.04 | 0.61 | -4 |

IF - Professor-o'qituvchilarning ilmiy faoliyati;
O'S - O'quv-uslubiy ishlar va o'qitish sifati;

TB - Talabalar bilimi va bitiruvchilar sifati;
TB - Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish bo‘yicha faoliyati.

**Oliy ta'lim muassasalari tomonidan to'plangan ballarning 2018 yilga nisbatan holati**

| № | Oliy ta'lim muassasasining nomi | Jami ballga nisbatan foiz hisobida (2018 y.) | Jami ballga nisbatan foiz hisobida (2019 y.) | O'sish yoki pasayish | 2019 yilda egallagan o'rni |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | O'zbekiston milliy universiteti | 62.82 | 69,02 | + 6,20 | 1 |
| 2 | Toshkent davlat sharqshunoslik instituti | 57.97 | 49,11 | - 8,86 | 10 |
| 3 | Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti | 55.38 | 68,96 | +13,58 | 2 |
| 4 | Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti | 52.97 | 43,19 | -9,78 | 23 |
| 5 | Samarqand davlat universiteti | 47.31 | 52,89 | +5,58 | 3 |
| 6 | Toshkent tibbiyot akademiyasi | 47.03 | 48,82 | +1,79 | 11 |
| 7 | Toshkent davlat stomatologiya instituti | 46.18 | 50,60 | +4,42 | 8 |
| 8 | O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti | 46.03 | 46,94 | +0,91 | 19 |
| 9 | Toshkent temir yo'l muhandislari instituti | 46,00 | 51,63 | +5,63 | 5 |
| 10 | Toshkent axborot texnologiyalari universiteti | 45.07 | 52,68 | +7,61 | 4 |
| 11 | Toshkent davlat agrar universiteti | 44.56 | 51,58 | +7,02 | 6 |
| 12 | Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti | 44.27 | 51,57 | +7,30 | 7 |
| 13 | Buxoro davlat universiteti | 43.87 | 38,55 | -5,32 | 16 |
| 14 | Toshkent pediatriya tibbiyot instituti | 43.11 | 47,91 | +4,80 | 15 |
| 15 | Toshkent kimyo-texnologiya instituti | 42.62 | 39,79 | -2,83 | 33 |
| 16 | Toshkent farmasevtika instituti | 41.74 | 42,53 | +0,79 | 25 |
| 17 | O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti | 41.60 | 35,90 | -5,70 | 51 |

| № | Oliy ta’lim muassasasining nomi | Jami ballga nisbatan foiz hisobida (2018 y.) | Jami ballga nisbatan foiz hisobida (2019 y.) | O‘sish yoki pasayish | 2019 yilda egallagan o‘rni |
|---|---|---|---|---|---|
| 18 | O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi | 41.13 | 38,03 | -3,1 | 39 |
| 19 | Toshkent davlat pedagogika universiteti | 40.79 | 46,94 | +6,15 | 18 |
| 20 | O‘zbekiston davlat konservatoriyasi | 40.69 | 38,74 | -1,95 | 37 |
| 21 | Qoraqalpoq davlat universiteti | 40.42 | 41,53 | +1,11 | 30 |
| 22 | Samarqand davlat chet tillar instituti | 40.12 | 42,49 | +2,37 | 26 |
| 23 | Toshkent davlat texnika universiteti | 39.91 | 42,25 | +2,34 | 27 |
| 24 | Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti | 39.38 | 47,39 | +8,01 | 17 |
| 25 | Toshkent moliya instituti | 38.99 | 50,43 | +11,44 | 9 |
| 26 | Samarqand veterinariya meditsinasi instituti | 38.96 | 37,48 | -1,48 | 42 |
| 27 | Samarqand iqtisodiyot va servis instituti | 38.91 | 48,35 | +9,44 | 13 |
| 28 | Namangan davlat universiteti | 38.89 | 35,93 | -2,96 | 50 |
| 29 | Namangan muhandislik-qurilish instituti | 38.83 | 39,76 | +0,93 | 34 |
| 30 | Urganch davlat universiteti | 38.46 | 48,62 | +10,16 | 12 |
| 31 | Guliston davlat universiteti | 38.43 | 33,47 | -4,96 | 55 |
| 32 | Samarqand davlat tibbiyot instituti | 36.36 | 39,69 | +3,33 | 35 |
| 33 | Termiz davlat universiteti | 36.31 | 35,21 | -1,10 | 52 |
| 34 | Buxoro muhandislik-texnologiya instituti | 36.18 | 38,01 | +1,83 | 40 |
| 35 | Toshkent avtomobil yo‘llarini loyihalash, qurish va ekspluatatsiyasi instituti | 36.07 | 41,17 | +5,10 | 31 |

| № | Oliy ta'lim muassasasining nomi | Jami ballga nisbatan foiz hisobida (2018 y.) | Jami ballga nisbatan foiz hisobida (2019 y.) | O'sish yoki pasayish | 2019 yilda egallagan o'rni |
|---|---|---|---|---|---|
| 36 | Andijon davlat universiteti | 35.98 | 36,95 | +0,97 | 44 |
| 37 | Nukus davlat pedagogika instituti | 35.77 | 35,12 | -0,65 | 53 |
| 38 | Toshkent davlat milliy raqs va xoreografiya oliy maktabi | 35.68 | 38,89 | +3,21 | 36 |
| 39 | Andijon davlat tibbiyot instituti | 35.50 | 36,87 | +1,37 | 44 |
| 40 | Navoiy davlat konchilik instituti | 35.31 | 40,71 | +5,40 | 32 |
| 41 | Buxoro davlat tibbiyot instituti | 35.17 | 47,44 | +12,27 | 16 |
| 42 | Toshkent arxitektura-qurilish instituti | 34.96 | 46,43 | +11,47 | 20 |
| 43 | Farg'ona politexnika instituti | 34.63 | 36,85 | +2,22 | 45 |
| 44 | Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti | 34.51 | 47,95 | +13,44 | 14 |
| 45 | Farg'ona davlat universiteti | 34.34 | 36,75 | +2,41 | 46 |
| 46 | Toshkent davlat yuridik universiteti | 34.14 | 46,28 | +12,14 | 21 |
| 47 | Andijon mashinasozlik instituti | 33.79 | 34,98 | +1,21 | 54 |
| 48 | Namangan muhandislik-texnologiya instituti | 33.69 | 44,10 | +10,41 | 22 |
| 49 | Navoiy davlat pedagogika instituti | 33.41 | 36,61 | +3,20 | 48 |
| 50 | Qarshi muhandislik - iqtisodiyot instituti | 33.32 | 36,22 | +3,10 | 49 |
| 51 | Qarshi davlat universiteti | 32.67 | 42,14 | +9,47 | 28 |
| 52 | Jizzax politexnika instituti | 32.11 | 37,92 | +5,81 | 41 |
| 53 | Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti | 30.45 | 36,66 | +6,21 | 47 |
| 54 | O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti | 30.42 | 43,11 | +12,69 | 24 |

| № | Oliy ta'lim muassasasining nomi | Jami ballga nisbatan foiz hisobida (2018 y.) | Jami ballga nisbatan foiz hisobida (2019 y.) | O'sish yoki pasayish | 2019 yilda egallagan o'rni |
|---|---|---|---|---|---|
| 55 | Milliy rassomlik va dizayn instituti | 28.96 | 42,03 | +13,07 | 29 |
| 56 | Jizzax davlat pedagogika instituti | 28.95 | 31,07 | +12,12 | 57 |
| 57 | Qo'qon davlat pedagogika instituti | 28.58 | 33,41 | +4,83 | 56 |

# 3-MAVZU: TA’LIMDA O‘QUV-TARBIYA JARAYONLARI, PROFESSOR-O‘QITUVCHILAR TARKIBI VA OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA JAMOATCHILIK NAZORATI (2 soat)

*Oliy ta’lim muassalari professor-o‘qituvchilari tarkibi va ularni ishga qabul qilish, tanlovdan o‘tkazish mexanizmlari. Ta’lim sifatini ta’minlash. Ta’lim sifatini ta’minlashda jamoatchilik nazoratining o‘rni. Jamoatchilik nazoratini joriy etish*

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 10 fevraldagi 20g‘sonli qarori bilan Oliy ta’lim muassasalariga pedagog xodimlarni tanlov asosida ishga qabul qilish tartibi to‘g‘risida nizom qabul qilingan.

**Mazkur Nizom, «Ta’lim to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 44,45 va 46-moddalariga muvofiq, oliy ta’lim muassasalariga pedagog xodimlarni (professor-o‘qituvchilar tarkibini) tanlov asosida ishga qabul qilish tartibini belgilaydi.**

Chuqur kasbiy bilimlarga va ilmiy yutuqlarga, ijodiy, ilmiy salohiyatga, yuksak intellektual qobiliyatlar va axloqiy fazilatlarga ega bo‘lgan, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablari darajasida mutaxassislar tayyorlash bilan shug‘ullanishga munosib bo‘lgan eng malakali pedagog kadrlarni tanlash uchun raqobat muhitini yaratish va ta’minlash tanlovning maqsadi hisoblanadi.

**Lavozimlari tanlov bo‘yicha egallanadigan pedagog xodimlar va tanlov qatnashchilariga qo‘yiladigan malaka talablari**

Pedagog xodimlar toifasiga **kafedra mudiri, professor, dotsent, katta o‘qituvchi, o‘qituvchi (assistent) o‘qituvchi-stajor** lavozimini egallab turgan shaxslar kiradi.

Oliy ta’lim muassasasining kafedra mudiri, professori, dotsenti, katta o‘qituvchisi, o‘qituvchisi (assistenti) o‘qituvchisi-stajori lavozimi **besh yil muddatga** tanlov bo‘yicha egallanadi.

Besh yillik muddat tamom bo‘lgandan keyin ko‘rsatib o‘tilgan lavozimlar mazkur Nizomga muvofiq tanlov asosida egallanadi.

Ikki va undan ortiq teng lavozimlarga bir vaqtda tanlov o‘tkazilmaydi.

Pedagog xodimlar lavozimlarini egallashning besh yillik muddati davrida rektorning buyrug‘i bilan tasdiqlanadigan oliy ta’lim muassasasining komissiyasi tomonidan har bir o‘quv yili yakunlari bo‘yicha ushbu Nizomga ilovaga muvofiq mezonlarga binoan pedagog xodimlar faoliyati har tomonlama o‘rganib chiqiladi.

Pedagog xodimlar faoliyatini o‘rganish tartibi oliy ta’lim muassasasining ilmiy kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Pedagog xodimlar faoliyatini o‘rganish natijalari oliy ta’lim muassasasining ilmiy kengashida ko‘rib chiqiladi.

**Kafedra mudiri lavozimini egallash uchun** tanlovda professor yoki dotsent ilmiy unvoniga, fan nomzodi, falsafa doktori (PhD), fan doktori yoki fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasiga, shuningdek xorijiy mamlakatlarning tegishli mutaxassislik bo‘yicha ularga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga ega bo‘lgan shaxs ishtirok etishi mumkin.

Dotsent (fan nomzodi, tegishli mutaxassislik bo‘yicha xorijiy mamlakatlarning falsafa doktori (Ph.D) yoki unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalari) kafedra mudiri lavozimini egallashga bir besh yillik muddatga qo‘yiladi.

Bir muddat tamom bo‘lgandan keyin kafedra mudiri lavozimini egallab turgan va fan doktori ilmiy darajasini olmagan dotsent (fan nomzodi, tegishli mutaxassislik bo‘yicha xorijiy mamlakatlarning falsafa doktori (Ph.D) yoki unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalari) faqat istisno hollarda oliy ta’lim muassasasi rektorining taqdimnomasiga binoan va bo‘ysunishi bo‘yicha tegishli vazirlik yoki idoraning ruxsati bilan kafedra mudiri lavozimini egallash uchun tanlovda yana ishtirok etishi mumkin.

Fan nomzodi, tegishli mutaxassislik bo‘yicha xorijiy mamlakatlarning falsafa doktori (Ph.D) yoki unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga yoki dotsent ilmiy unvoniga ega bo‘lgan aynan bir shaxsning kafedra mudiri lavozimiga tanlovda ketma-ket uchinchi muddatga ishtirok etishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

**Tillar, jismoniy tarbiya va sport, grafika va chizmachilik, madaniyat va san’at yo‘nalishlari kafedrasi mudiri lavozimini egallash uchun tanlovda ishtirok etishga dotsent ilmiy unvoniga (fan nomzodi, tegishli mutaxassislik bo‘yicha xorijiy mamlakatlarning falsafa doktori (Ph.D) yoki unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga) ega bo‘lmagan, biroq kamida 5 yil metodik, ilmiy-pedagogik, ijodiy va tashkiliy faoliyat tajribasiga ega bo‘lgan shaxs qo‘yilishi mumkin.**

**Professor lavozimini egallash uchun** tanlovda, qoidaga ko‘ra, professor ilmiy unvoniga yoki fan doktori yoki fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasiga, shuningdek tegishli mutaxassislik bo‘yicha xorijiy mamlakatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga ega bo‘lgan shaxs ishtirok etishi mumkin.

Professor lavozimini egallash uchun tanlovda fan nomzodi, falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga yoki tegishli mutaxassislik bo‘yicha xorijiy mamlakatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga yoki dotsent ilmiy unvoniga ega bo‘lgan shaxs kamida 5 yil ilmiy-pedagogik ish stajiga ega bo‘lish, ushbu kafedraning ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha darsliklar va o‘quv qo‘llanmalari muallifi bo‘lish sharti bilan bir muddatga ishtirok etishi mumkin.

**Dotsent lavozimini egallash uchun** tanlovda, qoidaga ko‘ra, dotsent ilmiy

unvoniga, katta ilmiy xodim yoki fan nomzodi, falsafa doktori (PhD), fan doktori yoki fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasiga, shuningdek xorijiy mamlakatlarning tegishli mutaxassislik bo'yicha ularga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga ega bo'lgan shaxs ishtirok etishi mumkin.

Bir muddatga dotsent lavozimini egallash uchun tanlovda, shuningdek tegishli ilmiy unvonga va ilmiy darajaga ega bo'lmagan, biroq ushbu mutaxassislik bo'yicha kamida 3 yillik amaliy ish tajribasiga ega bo'lgan, mazkur kafedraning ta'lim yo'nalishlari bo'yicha darsliklar va o'quv qo'llanmalari muallifi bo'lgan yuqori malakali mutaxassis ham qatnashishi mumkin.

**Katta o'qituvchi lavozimini egallash uchun** tanlovda oliy ma'lumotga ega bo'lgan shaxs (magistr, diplomli mutaxassis), shuningdek ilmiy daraja (shu jumladan, fan nomzodi, tegishli mutaxassislik bo'yicha xorijiy mamlakatlarning falsafa doktori (Ph.D) darajasiga yoki unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga) va ilmiy unvonga ega bo'lgan hamda bunday daraja va unvonga ega bo'lmagan, biroq o'qituvchilik, ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish ishlari tajribasiga ega bo'lgan shaxslar ham qatnashishi mumkin.

**O'qituvchi (assistent) o'qituvchi-stajor lavozimini egallash uchun** tanlovda tegishli mutaxassislik bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lgan shaxs (magistr, diplomli mutaxassis) qatnashishi mumkin.

**Professor, dotsent, katta o'qituvchi, o'qituvchi (assistent), o'qituvchi-stajor lavozimini egallash uchun tanlovda tasviriy va amaliy san'at sohasida oliy ma'lumotga ega bo'lmagan, biroq o'zining noyob iste'dodi va mahorati bilan tanilib, xalq e'tirofiga sazovor bo'lgan «O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi», «O'zbekiston Respublikasi xalq rassomi», «O'zbekiston Respublikasi xalq ustasi» faxriy unvonlariga ega bo'lgan shaxslar hamda O'zbekiston Badiiy akademiyasi akademiklari istisno tariqasida qatnashishlari mumkin.**

Homilador ayollar, shuningdek uch yoshgacha bolalari bo'lgan ayollar egallab turgan lavozimlarga tanlov e'lon qilinmaydi.

Oliy ta'lim muassasalariga o'qituvchi lavozimiga soatbay haq to'lash shartlarida ishga kirayotgan shaxslar tanlovsiz, rektor buyrug'i bilan, belgilangan tartibda qabul qilinadi.

**Toshkent davlat yuridik universitetiga pedagog xodimlar adliya organlari va muassasalari uchun belgilanadigan tartibda o'tkaziladigan tanlov asosida qabul qilinadi.**

O'qishni tugallash yilida oliy ta'lim muassasasi magistraturasining bitiruvchisi bo'sh lavozimlar mavjud bo'lgan taqdirda taqsimot bo'yicha 3 yil muddatga tanlovdan tashqari o'qituvchilik lavozimiga tayinlanadi. Ushbu muddat faqat davlat granti asosida o'qishni tamomlagan magistratura bitiruvchilari uchun

qo‘llanadi.

**Toshkent davlat yuridik universitetida o‘qituvchi va katta o‘qituvchi lavozimlariga oliy ma’lumotga ega bo‘lgan shaxs (qoida tariqasida, magistr, diplomli mutaxassis), shuningdek ilmiy daraja (shu jumladan, xorijiy mamlakatlarning falsafa doktori (Ph.D) darajasiga yoki unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga) va ilmiy unvonga ega bo‘lgan hamda bunday daraja va unvonga ega bo‘lmagan, biroq o‘qituvchilik, ilmiy-tadqiqot va amaliy ish tajribasiga ega bo‘lgan shaxslar qabul qilinishi mumkin.**

**Tanlovlarni o‘tkazish tartibi**

Oliy ta’lim muassasasi saylash muddati ushbu o‘quv yilida tamom bo‘ladigan, shuningdek bo‘sh lavozimlarga kafedra mudirlari, professorlar, dotsentlar, katta o‘qituvchilar, o‘qituvchilar (assistentlar) va o‘qituvchilar-stajorlar lavozimlarini egallashga tanlov e’lon qiladi.

Tanlov bo‘yicha saylov oliy ta’lim muassasalarining ilmiy kengashlarida yoki fakultetlarning ilmiy kengashlarida o‘tkaziladi. Oliy ta’lim muassasasining ilmiy kengashida yoki fakultetning ilmiy kengashida saylanadigan lavozimlarni belgilash huquqi oliy ta’lim muassasasining rektoriga tegishli bo‘ladi.

Kafedra mudirlari va professorlar oliy ta’lim muassasalarining ilmiy kengashlarida tanlov bo‘yicha o‘tadilar.

**Oliy ta’lim muassasalari tomonidan jismoniy tarbiya va sport yo‘nalishi o‘qituvchisi (kafedra mudiri) lavozimini egallash uchun o‘tkaziladigan tanlovda O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi vakilining ilmiy kengash yig‘ilishida ishtirok etishi talab etiladi.**

**Tanlovlar vaqtli matbuotda yoki boshqa ommaviy axborot vositalarida, shu jumladan oliy ta’lim muassasasining ko‘p nusxali gazetasida e’lon qilinadi. Tanlovda qatnashish uchun arizalar e’lon chiqqan kundan boshlab bir oydan kechikmay berilishi kerak.**

Tanlovda qatnashishni xohlovchilar oliy ta’lim muassasasi rektori nomiga ariza beradilar, arizaga kadrlarni hisobga olish bo‘yicha shaxsiy varaqa va oliy ma’lumot to‘g‘risidagi diplomlar nusxasi ilova qilinadi.

Qatnashuvchilarda ilmiy daraja (shu jumladan, fan nomzodi, tegishli mutaxassislik bo‘yicha xorijiy mamlakatlarning falsafa doktori (Ph.D) darajasiga yoki unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga), ilmiy unvon, shuningdek ilmiy ishlar va ixtirolar mavjud bo‘lgan taqdirda ular tegishli diplomlar, attestatlar nusxalarini va ilmiy ishlar ro‘yxatini, malaka oshirish to‘g‘risidagi guvohnomalarni taqdim etishlari kerak.

Tanlovga tushgan barcha hujjatlar oldindan kafedra majlisida ko‘rib chiqiladi. Ilgari kafedrada ishlamagan shaxslarning hujjatlarini ko‘rib chiqishdan

oldin ular tomonidan sinov leksiyalari (mazkur oliy ta'lim muassasasi o'qituvchilari uchun — ochiq mashg'ulotlar) o'tkaziladi. Sinov leksiyalari va ochiq mashg'ulotlar mavzulari kafedra predmetlari bo'yicha o'quv dasturi talablariga muvofiq bo'lishi kerak. **Tanlov qatnashchilarini test sinovlaridan o'tkazishga yo'l qo'yiladi. Kafedra mudiri lavozimiga nomzodlarni muhokama qilish bo'yicha majlisni fakultet dekani (oliy ta'lim muassasalari umumiy kafedralarida – prorektor o'tkazadi).**

Ilgari o'zi egallab kelgan lavozim uchun tanlovda qatnashuvchi shaxslar kafedra majlisida tanlovdan oldingi davrdagi ilmiy-pedagogik, metodik, tarbiyaviy va boshqa ishlari to'g'risida hisobot beradi.

Kafedra ilgari egallab kelgan lavozimi uchun tanlovda qatnashuvchi har qaysi nomzod bo'yicha materiallarni ko'rib chiqish natijalariga ko'ra, **ochiq yoki yashirin ovoz** bergan holda, kafedraning shtatdagi o'qituvchilarining (shu jumladan o'rindoshlik tartibida ishlayotgan o'qituvchilarining) va ilmiy xodimlarining oddiy ko'pchilik ovozi bilan tavsiyanoma qabul qiladi va uni o'qituvchining hisoboti bilan birga oliy ta'lim muassasasi (fakultet) ilmiy kengashiga jo'natadi.

Fakultetning kafedra a'zosi hisoblanmaydigan dekani (prorektor) kafedra mudiri lavozimiga nomzodlar bo'yicha tavsiyanomalar qabul qilishda ovoz berishda qatnashmaydi. Egallash uchun tanlov e'lon qilingan lavozimni egallab turgan shaxs materiallarni ko'rib chiqish chog'ida ovoz berishda qatnashmaydi.

Har qaysi nomzod bo'yicha ilmiy kengash majlisida yashirin ovoz berishni o'tkazishdan oldin kafedraning tavsiyanomasi o'qib eshittiriladi.

Mazkur lavozim uchun tanlovda qatnashuvchi barcha shaxslarning familiyasi yashirin ovoz berish uchun bitta byulletenga kiritiladi.

Ovoz berish byulletenda ovoz berilayotgan nomzodning familiyasi ro'parasiga tegishli belgi qo'yish yo'li bilan amalga oshiriladi. Faqat bitta nomzod uchun ovoz berishga yo'l qo'yiladi.

Agar byulletenda ovoz berish uchun birorta ham belgi qo'yilmagan bo'lsa yoxud belgi ikki yoki undan ko'p familiyalar ro'parasiga qo'yilgan bo'lsa, u holda bunday byulleten buzilgan hisoblanadi va ovozlarni hisoblashda hisobga olinmaydi.

Ovozlarni hisoblash uchun ilmiy kengash ovoz berish boshlanishidan oldin tarkibida ilmiy kengashning kamida uch nafar a'zosi bo'lgan sanoq komissiyasini saylaydi. Sanoq komissiyasi har qaysi nomzod bo'yicha ovoz berish natijalarini e'lon qiladi.

Sanoq komissiyasi protokoli ilmiy kengash tomonidan tasdiqlanadi va tanlov materiallariga qo'shib qo'yiladi.

Tanlovni o‘tkazishda ilmiy kengash qarori, agar ovoz berishda ilmiy kengashning tasdiqlangan (ro‘yxatdagi) tarkibidagi a’zolarining kamida uchdan ikki qismi qatnashgan bo‘lsa vakolatli hisoblanadi. Ilmiy kengashning ovoz berishda qatnashgan a’zolarining ko‘pchilik ovozini, biroq kamida 50 foiz ovozini olgan nomzod tanlovdan o‘tgan hisoblanadi.

Birortasi ham talab qilingan miqdorda ovoz ololmagan ikki nafardan ko‘p nomzodlar qatnashgan taqdirda ilmiy kengashning aynan shu majlisida dastlabki ikki talabgor o‘rtasida takroriy ovoz berish o‘tkaziladi. Agar ikki nomzod qatnashgan tanlovni o‘tkazishda ovozlar soni teng bo‘lib qolsa raisning ovozi hal qiluvchi hisoblanadi. Ilmiy kengash qarori oliy ta’lim muassasasi rektorining buyrug‘i bilan tasdiqlanadi.

Tanlovda qatnashish uchun arizalar mavjud bo‘lmagan taqdirda, tanlov o‘tkazilmagan hisoblanadi.

Lavozimlarni egallash uchun o‘qituvchilarni tanlash bo‘yicha kafedra va ilmiy kengash majlislari ochiq tartibda o‘tadi. Tanlovda qatnashuvchilarga ularning nomzodlari muhokama qilinadigan kafedra va ilmiy kengash majlislarida qatnashish yoki ularning xohishiga ko‘ra kafedra yoki ilmiy kengash qarori bilan tanishish huquqi beriladi.

Ilmiy kengash kotibi tanlov natijalari to‘g‘risida o‘n kun muddatda unda qatnashgan shaxslarni yozma ravishda xabardor qiladi.

Oliy ta’lim muassasasi (fakultet) ilmiy kengashining qarori, agar u ushbu Nizom talablariga rioya etilgan holda qabul qilingan bo‘lsa, uzil-kesil hisoblanadi.

**Mehnat shartnomasi (kontrakt)ni tuzish, o‘zgartirish va to‘xtatish**

Ushbu oliy ta’lim muassasasida ishlamaydigan va pedagog xodimlar lavozimga tanlovdan o‘tgan shaxslar bilan belgilangan tartibda mehnat shartnomalari tuziladi, mehnat shartnomalari asosida ularni 5 yil muddatga ishga qabul qilish to‘g‘risida buyruq chiqariladi.

Mehnat shartnomalarida ish beruvchi tomonidan har 5 yilda xodim egallab kelgan lavozim uchun tanlov o‘tkazilishi belgilab qo‘yiladi, xodim esa tanlovda qatnashishga haqlidir.

Xodim mehnat shartnomasi tuzilgandan keyin ishga kirishishi shart bo‘lgan muddat tomonlarning kelishuvi bo‘yicha belgilanadi, biroq ushbu muddat bir oydan ortiq bo‘lishi mumkin emas. Pedagog xodimlarning yozgi kanikul (ta’til) davri ushbu muddatga kirmaydi.

Mazkur oliy ta’lim muassasasida ishlaydigan va tanlov bo‘yicha saylangan shaxslarning mehnat shartnomalariga quyidagilar yozib qo‘yiladi:

ular ilgari egallab kelgan lavozim uchun — mehnat munosabatlarini yangi muddatga uzaytirish to‘g‘risidagi ma’lumotlar yoziladi va tegishli buyruq

chiqariladi;

boshqa lavozimlar uchun — tanlovdan o‘tganlik to‘g‘risida ilmiy kengash protokoli qayd etilgan holda tegishli o‘zgartirishlar yoziladi va boshqa lavozimga o‘tkazish to‘g‘risida buyruq chiqariladi.

Davlat boshqaruvi organi qaroriga ko‘ra pedagog xodimlar attestatsiyadan o‘tkazilgan taqdirda attestatsiya yakunlariga ko‘ra ish beruvchi va xodimlar o‘rtasidagi mehnat munosabatlari masalalari, shaxsning tanlov bo‘yicha egallanadigan lavozimda bo‘lish muddatidan qat’i nazar, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal qilinadi.

Ilgari egallab kelgan lavozimi uchun tanlovdan o‘tmagan, shuningdek tanlovda qatnashish uchun ariza bermagan shaxslar bilan mehnat shartnomasi yangi muddatga tanlovdan o‘tmaganligi yoxud tanlovda qatnashishni rad etganligi sababli oliy ta’lim muassasasi rektori tomonidan belgilangan muddatlarda (qoidaga ko‘ra, o‘quv semestri, yil tamom bo‘lgandan keyin) mehnat qonunchiligiga muvofiq to‘xtatiladi.

**Kafedralar birlashtirilganda yoki kafedra bo‘linganda pedagog xodimlar bo‘yicha muddatidan oldin tanlovlar o‘tkazishga yo‘l qo‘yilmaydi.**

**Kafedralar birlashtirilgan taqdirda yangidan tashkil etilgan kafedra mudiri lavozimini egallash to‘g‘risidagi masalani oliy ta’lim muassasasining ilmiy kengashi oldindan tanlov e’lon qilmasdan, yashirin ovoz berish yo‘li bilan hal qiladi.**

**Kafedra bo‘lingan taqdirda uning mudiri saylangan muddati o‘tgungacha, rektor buyrug‘i bilan yangidan tashkil etilgan kafedralardan birining mudiri lavozimiga tayinlanadi. Boshqa kafedraning mudiri lavozimiga tanlov bo‘yicha mudir tayinlanadi.**

**Oliy ta’lim muassasasi rektoriga tanlov o‘tkazilgungacha kafedraning yetakchi o‘qituvchilaridan bittasiga yoki dekanga bo‘sh kafedra mudiri lavozimi bo‘yicha vazifalarni bajarishni yuklashga ruxsat etiladi.**

Vakillik organlarida saylab qo‘yiladigan lavozimga saylanishi natijasida uning bilan mehnat shartnomasi to‘xtatilgan o‘qituvchi uning saylov bo‘yicha vakolatlari tugagandan keyin tanlov natijalariga ko‘ra saylangan muddati tugagungacha mazkur oliy ta’lim muassasasining ilgari egallab kelgan yoki unga teng bo‘lgan pedagog xodimlardagi lavozimga tayinlanadi.

Oliy ta’lim muassasasi rektoriga oliy ta’lim muassasasi (fakultet) ilmiy kengashida ko‘rib chiqish uchun pedagog xodimlarning egallab turgan lavozimlariga muvofiqligi to‘g‘risidagi masalani kiritish huquqi beriladi.

Oliy ta’lim muassasasi (fakultet) ilmiy kengashida pedagog xodimning egallab turgan lavozimiga muvofiqligi to‘g‘risidagi masalani ko‘rib chiqishdan

oldin uning faoliyati rektorning buyrug‘i bilan tasdiqlanadigan komissiya tomonidan o‘rganib chiqilishi kerak. Ilmiy kengash qarori asosida pedagog xodimni egallab turgan lavozimiga nomuvofiqligi bo‘yicha vazifasidan ozod qilishga uning malakasi yetarli bo‘lmaganligi sababli ilmiy-metodik va tarbiyaviy ishlar, shuningdek leksiyalar va seminar mashg‘ulotlari o‘tkazish darajasi past bo‘lgan taqdirda yo‘l qo‘yiladi.

Agar ilmiy kengash qaroriga ko‘ra kafedra mudiri, professor, dotsent, katta o‘qituvchi, o‘qituvchi-stajor egallab turgan lavozimiga nomuvofiq deb e’tirof etilsa, u holda uning bilan tuzilgan mehnat shartnomasi belgilangan tartibda to‘xtatiladi.

Kafedra mudiri bilan tuzilgan mehnat shartnomasi, shuningdek kafedraga rahbarlik qilish bo‘yicha o‘z funksional vazifalarini bajarmaganligi yoki zarur darajada bajarmaganligi sababli ilmiy kengash qaroriga binoan to‘xtatilishi mumkin.

Oliy ta’lim muassasalarining pedagog xodimlar bilan tuzilgan mehnat shartnomasini to‘xtatish masalalariga doir mehnat nizolari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

**Ushbu tartibga ayrim o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha takliflar berilishi mumkin deb hisoblaymiz.**

**1.Toshkent davlat yuridik universitetida o‘qituvchi va katta o‘qituvchi lavozimlariga o‘qituvchilik, ilmiy-tadqiqot va amaliy ish tajribasiga ega bo‘lgan bakalavrlarni ham qabul qilish ko‘zda tutilgan. Bunday holat ta’lim sifatini pasayishiga olib kelishi no‘qtai-nazaridan Nizomdan chiqarilishi maqsadgsha muvofiq.**

**2. Magistr darajasiga ega shaxslar pedagog hisoblanishi no‘qtai nazaridan ular oliy ta’lim muassasalarida pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqiga ega ekanligi ushbu Nizomda belgilab qo‘yilgan, lekin, so‘nggi yillarda 1 yillik magistraturalar ham joriy etilmoqda va ularning o‘quv rejalarida pedagogikaga oid fanlar hamda pedagogik ish ko‘zda tutilmaganligi sababli, ularni pedagog deb hisoblash mumkin emasligidan kelib chiqqan holda Nizomda 2 va undan ortiq yil magistraturada o‘qib tugatganlar oliy ta’lim muassasasida pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanishi mumkinligi o‘z aksini topishi lozim (pedagogikaga oid magistratura mutaxassisliklari bundan istisno).**

**3. Kafedralarga pedagoglarni ishga qabul qilishda ularning magistratura mutaxassisliklari tegishli bakalavriat negizida ekanligi yoki yo‘qligiga e’tibor berilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ayrim hollarda bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bilan shifri bir xil bo‘lmagan magistratura mutaxassisligini bitirgan**

**mutaxassislarni ishga olinishi oliy ta'lim muassasalarida ayrim muammolarni keltirib chiqarmoqda, jumladan ularga bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga oid fanlardan dars berish holatlari uchrmoqda, bunga yo'l qo'yish mumkin emas, sababi u ishga magistratura diplomi bilan qabul qilingan shu sababli ular magistratura mutaxassisligiga oid fanlardan dars berishi lozim. Fundament bo'lmaganligi sababli dars sifati talabga javob bermaydigan holatlar yuzaga kelmoqda. Nizomda bular inobatga olinsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Albatta bunday hollarda kafedra mudirining mas'uliyati belgilab qo'yilishi lozim.**

**Oliy ta'lim muassasalarining pedagog xodimlari faoliyatini o'rganish mezonlari.**

| T/r | Ko'rsatkichlar | Baho |
|---|---|---|
| | **O'quv-metodik faoliyati (40 ball)** | |
| 1. | **O'qituvchilik faoliyati (20 ball):** | |
| 1.1. | Nazariy bilimlarni, amaliy ko'nikmalarni va o'qitiladigan fanning zamonaviy tendensiyalarini egallaganlik darajasi (ochiq mashg'ulotlar natijalari bo'yicha) | |
| 1.2. | O'qitish sifati darajasi (talabalardan so'rab chiqish natijalari bo'yicha) | |
| 1.3. | Talabalarning o'qituvchining yo'llanmasi (fani) bo'yicha olimpiadalarda, har xil tanlovlar va ilmiy grantlardagi ishtiroki | |
| 2. | **Metodik ishlar (20 ball):** | |
| 2.1. | Yil mobaynida oliy ta'lim muassasasi o'qituvchisi tomonidan nashr etilgan darsliklar va o'quv qo'llanmalari soni | |
| 2.2. | O'qitishda kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanish darajasi, o'quv kursini va o'quv-taqdimot materiallarini ishlab chiqish | |
| 2.3. | O'quv jarayonida zamonaviy ta'lim texnologiyalari va talabalar bilimlarini baholashning ilg'or usullari qo'llanilishi darajasi | |
| | **Tarbiyaviy faoliyati (20 ball)** | |
| 3. | Talabalar bilan tarbiyaviy ish bo'yicha tadbirlarda ishtirok etish: ma'naviy-ma'rifiy ishlar, sport klublari, ilmiy, ijodiy to'garaklar, madaniy tadbirlar va shu kabilar | |
| 4. | Talabalarning akademik guruhlarida kuratorlik | |
| 5. | Talabalarning o'qishdan tashqari bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishni tashkil etishdagi ishtiroki | |
| 6. | Idora, mintaqa doirasida bajariladigan jamoatchilik ishlari va oliy ta'limdan tashqari ishlar | |
| | **Ilmiy faoliyati (30 ball)** | |
| 7. | Ilmiy konferensiyalar ishida ishtirok etish | |
| 8. | Ilmiy nashrlarda (shu jumladan xorijiy ilmiy nashrlarda) materiallar, monografiyalar e'lon qilish | |
| 9. | Xalqaro, ilmiy loyihalarga, xo'jalik shartnomalariga rahbarlik qilish yoki ularda ishtirok etish | |
| 10. | Patentlar va ixtirolar soni | |
| 11. | Tayanch doktorantlar va doktorantlarning dissertatsiya tadqiqotlariga ilmiy rahbarlik qilish | |
| 12. | Doktorlik dissertatsiyalari doirasida ilmiy tadqiqot olib borish | |
| | **Oliy ta'lim muassasasini rivojlantirishga qo'shgan ulushi (10 ball)** | |
| 13. | Boshqa ta'lim muassasalari: oliy ta'lim muassasalari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari bilan hamkorlikni mustahkamlashda ishtirok etish (o'qituvchilik faoliyati va ular uchun bilimlar darajasini oshirish treninglarini tashkil etish) | |
| 14. | Xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan ayirboshlash dasturlarida ishtirok etish va ularni | |

| | | |
|---|---|---|
| | tashkil etish | |
| 15. | Yangi yo‘nalishni, yangi kafedrani, laboratoriyani ochish ishida, Axborot-resurs markazining elektron bazasini to‘ldirishda ishtirok etish | |
| | **Shaxsiy fazilatlari (10 ball)** | |
| 16. | Ilmiy daraja va ilmiy unvon | |
| 17. | Malaka oshirish kurslaridan o‘tish | |
| 18. | Xorijiy tillarni egallaganlik, materiallarni ishlab chiqish va fanni o‘qitishda ulardan amalda foydalanish | |
| 19. | Xorijiy ta’lim muassasalari va ilmiy muassasalarda stajirovkadan o‘tish | |
| | **JAMI (eng ko‘p ball — 110)** | |

Izoh: oliy ta’lim muassasasining o‘ziga xosligidan kelib chiqib, ko‘rsatkichlar ichida tegishli mezonlar bo‘yicha ballarni taqsimlash oliy ta’lim muassasasi tomonidan belgilanadi.

# V. ГЛОССАРИЙ

# V. GLOSSARIY

| Termin | O‘zbek tilidagi sharhi |
|---|---|
| **Ichki baholash** | Ta’lim tashkilotlarining faoliyatini ichki baholash ta’lim tashkilotlari tomonidan o‘zini o‘zi baholash hisoblanadi. |
| **Tashqi baholash** | Ta’lim tashkilotlarining faoliyatini tashqi baholash ichki baholash o‘tkazilganidan keyin ta’lim tashkilotlari faoliyatiga Davlat inspeksiyasi tomonidan baho berish hisoblanadi. |
| **Ichki nazorat** | Oliy ta’lim muassasasi tomonidan amalga oshiriladi. Ichki nazorat oliy ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlagan nazorat tizimi haqidagi nizom asosida o‘tkaziladi. |
| **Tashqi nazorat** | Ta’lim tashkilotini tashqi nazorat qilish bo‘lib, belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan amalga oshiriladi. |
| **Davlat-jamoatchilik nazorati** | Oliy ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organi, jamoat tashkilotlari va kadrlar buyurtmachilari tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi. |
| **Yakuniy davlat nazorati** | Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari bo‘yicha ularning o‘quv rejalariga muvofiq ravishda o‘quv fanlari bo‘yicha davlat attestatsiyasi, bakalavriat talabasi uchun bitiruv malakaviy ishi yoki magistratura talabasi uchun dissertatsiya himoyasini o‘z ichiga oladi. |
| **Ta’lim tashkilotlari attestatsiyasi** | Ta’lim tashkilotlarining faoliyatini baholash, davlat ta’lim standartlari, davlat ta’lim talablari hamda o‘quv dasturlariga muvofiq kadrlar tayyorlash mazmuni, darajasi va sifatini aniqlash bo‘yicha davlat nazoratining asosiy shakli. |
| **Davlat akkreditatsiyasi** | Davlat ta’lim muassasalari va tashkilotlari, shuningdek nodavlat ta’lim tashkilotlari (bundan buyon matnda ta’lim tashkilotlari deb yuritiladi) faoliyatining davlat ta’lim standartlari va davlat ta’lim talablariga hamda o‘quv dasturlariga muvofiqligining davlat tomonidan e’tirof etilishi hamda ularning bitiruvchilariga ma’lumot to‘g‘risidagi hujjatlarni topshirish huquqining taqdim etilishidan iborat jarayon. |
| **Normativ-huquqiy hujjatlar** | Umummajburiy davlat ko‘rsatmalari sifatida huquqiy normalarni belgilashga, o‘zgartirishga yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjatdir. |
| **Normativ-huquqiy hujjatlar qabul** | O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari, O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti, O‘zbekiston |

| | |
|---|---|
| **qilish huquqiga ega bo'lgan organlar yoki mansabdor shaxslar** | Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish huquqiga ega bo'lgan organlar yoki mansabdor shaxslar hisoblanadi |
| **Oliy ma'lumot darajasi** | shaxs tomonidan oliy ta'limning muayyan o'quv rejalari va fanlar dasturini mazkur ma'lumot haqida tegishli davlat hujjati berilgan holda, o'zlashtirishi natijasi |
| **Oliy ma'lumot haqida davlat hujjati (diplom)** | Akkreditatsiyadan o'tgan oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilariga beriladigan va ularning oliy ta'limning o'quv rejalari va fanlar dasturini bajarganliklarini tasdiqlovchi davlat namunasidagi hujjat. Hujjat uzluksiz ta'limning keyingi bosqichlarida o'qishni davom ettirish yoki olingan akademik darajaga muvofiq ishlash huquqini beradi |
| **Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori** | Oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash uchun bakalavriat ta'limi yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining tizimlashtirilgan ro'yxati |
| **oliy ta'limning davlat ta'lim standarti** | Muayyan ta'lim sohasiga (soha tarkibiga) qo'yiladigan malaka talablari, ta'lim mazmuni, bitiruvchilar umumiy tayyorgarligining zaruriy va yetarli darajasini, kadrlar tayyorlash sifatini baholash darajalarini belgilaydigan etalon darajasi |
| **Malaka talablari** | Uzluksiz ta'lim tegishli bosqichi bitiruvchisining umumiy bilim va kasb tayyorgarligi darajasiga qo'yiladigan talablar |
| **o'qitishning me'yoriy muddati** | ta'lim oluvchilar tomonidan o'quv rejalari va fanlar dasturi o'zlashtirilishi uchun belgilangan muddat |
| **o'quv fanlari bloki** | o'quv rejalari va fanlar dasturlarining kadrlar tayyorlash jarayonida aniq maqsad va vazifalarga erishish uchun muayyan bilim sohasi yoki faoliyatning o'zlashtirilishini ta'minlaydigan o'quv fanlarini birlashtiruvchi tarkibiy qismi |
| **O'quv rejasi** | oliy ta'limning muayyan bakalavriat ta'lim yo'nalishi yoki magistratura mutaxassisligi bo'yicha o'quv faoliyati turlari, o'quv fanlari va kurslarining tarkibi, ularni o'rganishning izchilligi va soatlardagi hajmini belgilaydigan hujjat |
| **O'quv fani** | ta'lim muassasasida o'rganish uchun fan, texnika, san'at, ishlab chiqarish faoliyatining muayyan sohasidan saralab olingan bilimlar, o'quv va ko'nikmalar tizimi |
| **O'quv semestri** | oliy ta'lim muassasasida o'quv yilining yarmini tashkil etuvchi o'zaro bog'langan fanlarning ma'lum majmuini |

| | |
|---|---|
| | o‘zlashtirishga mo‘ljallangan va ular bo‘yicha yakuniy nazorat bilan tugallanadigan qismi |
| **O‘quv fani dasturi** | ta’lim mazmuni, uning talabalar tomonidan o‘zlashtirilishining eng maqbul usullari, axborot manbalari ko‘rsatilgan normativ hujjat |
| **Malaka amaliyoti** | o‘quv jarayonining nazariy bilimlarni mustahkamlash, amaliy ko‘nikma va o‘quv hosil qilish, o‘quv rejalari va fanlar dasturlarning ma’lum (yakuniy) qismidagi mavzu bo‘yicha materiallar to‘plash uchun o‘tkaziladigan bir qismi |
| **O‘qitish sifatini nazorat qilish** | talabaning bilim saviyasini tekshirish va uning o‘quv dasturini o‘zlashtirish darajasini aniqlash |
| **Ta’lim sifatini nazorat qilish** | o‘qitish mazmuni va natijalarining davlat ta’lim standartlari talablariga muvofiqligini tekshirish |
| **Oliy ta’lim** | uzluksiz ta’limning yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi mustaqil turi. Oliy ta’lim muassasalarida amalga oshiriladi.<br>Oliy ta’lim ikki bosqichdan iborat: bakalavriat va magistratura |
| **O‘quv reja** | o‘quv fanlarini o‘rganish ketma-ketligi va hajmini belgilovchi o‘quv rejasi |
| **Ishchi o‘quv reja** | talabalarning shaxsiy o‘quv rejalari asosida shakllantirilgan o‘quv rejasi, o‘qituvchilarning o‘quv ishlari yuklamalarini hisoblash uchun asos bo‘ladigan hujjat |

# VI. АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

# VI. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

**I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari:**

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

**II. Normativ-huquqiy hujjatlar:**

6. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.–T.:O‘zbekiston, 2018.
7. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabr “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmoni.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
14. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagi «Oliy ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 343-sonli Qarori.
15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 10

yanvardagi “Oliy ta’limning Davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2001 yil 16 avgustdagi “343-sonli qororiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi 3-sonli qarori.

16. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 7 iyundagi qarori bilan tasdiqlangan “Davlat ta’lim muassasalari hamda nodavlat ta’lim tashkilotlarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida nizom”.

17. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 7 iyundagi qarori bilan tasdiqlangan “Oliy ta’lim muassasalari reytingini aniqlash tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 467-sonli qarori.

18. Ta’lim tashkilotlarini attestatsiyadan o‘tkazish mezonlari [O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020 yil 27 yanvarda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3214].

**III. Maxsus adabiyotlar:**

11. Usmonov B.Sh., Xabibullaev R.A. Oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O‘quv qo‘llanma. T.: “Tafakkur” nashriyoti, 2020 y. 120 bet.

12. O‘rinov V. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalarida ECTS kredit-modul tizimi: asosiy tushunchalar va qoidalar. O‘quv qo‘llanma. Nyu Bransvik Universiteti, 2020 y.

13. Oliy ta’limning me’yoriy - huquqiy  xujjatlari to‘plami. -T., 2013.

14. Rasprostranenie Bolonskogo protsessa: o deklaratsii k vnedreniyu na praktike. V 3-x chastyax. Chast 2. Tendensii razvitiya Bolonskogo protsessa, yego instrumentы i opыt vnedreniya / R.R. Agishev, I.V. Anisimova, Sh.M. Valitov, D.A. Gopkalo, V.G. Kryukov, A.Ye. Pushkina, L.A. Simonova, A.P. Snegurenko. Pod red. prof. R.R. Agisheva. - Kazan, KGTU im. A.N. Tupoleva, 2008. - 118 s.

15. The European Higher Education Area. - Joint Declaration of the Ministers of Education. - Bologna, 1999, 19 June.

16. Shaping our Own Future in the European Higher Education Area // Convention of European Higher Education Institutions. - Salamanca, 2001, 29-30 march.

**IV. Internet saytlar:**

17. http://edu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.

18. http://lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

19. http://bimm.uz – Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi.

20. http://ziyonet.uz – Ta’lim portali ZiyoNET.

21. http://natlib.uz – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi.